

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

HUQUQSHUNOSLIK FAKULTETI

МАЛАКАВИЙ БИТИРУВ ИШИ.

«DAVLAT HUQUQI» KAFEDRASI

MAVZU: Hozirgi zamon mamlakatlarida Prezident davlat boshlig'i sifatida

**BAJARUVCHI: 4-kurs kunduzgi
bo'lim talabasi Sodiqov Jaxongir
ILMIY RAHBAR: dos. Sh.Boymurodov**

SAMARQAND – 2013

MAVZU: Hozirgi zamon mamlakatlarida Prezident davlat boshlig'i sifatida

REJA:

KIRISH

I. Bob Xorijiy mamlakatlarda davlat boshlig'i.

1.1 Davlat boshlig'i mamlakat ichida va tashqi aloqalarida oliy vakil sifatida.

1.2. Davlat boshlig'ining yuridik shakllari.

1.3. Davlat boshlig'ining qonunchilik jarayonidagi ishtiroki. Qonunchilik tashabbusi.

II. Bob O'zbekiston Respublikasida davlat boshlig'ining maqomi

2.1 O'zbekiston Respublikasida davlat boshlig'i institutining shakllanishi va rivojlanishi

2.2 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nazorati

III. Bob Prezidentning saylash usullari va lavozimidan chetlatish

3.1. Prezidentlik saylovining asosiy tizimlari: to'g'ridan to'g'ri (Fransiya), egri saylovlar (AQSh), maxsus organ tomonidan saylanish (GFR, Hindiston), parlament tomonidan (Gresiya).

3.2. Prezidentlik nomzodlariga qo'yiladigan talablar.

3.3. Inaugurasiya. Muddatidan oldin lavozimidan chetlashtirish (isteyfoga chiqish, impichment).

3.4. Davlat boshlig'i huzuridagi yordamchi organlar va muassasalar.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

KIRISH

Hokimiyatning "klassik" tarmoqlari – parlament, hukumat, sud (qonunchilik, ijro va sud hokimiyati)dan farqli ravishda davlat rahbarining amaliy va yuridik holatini bir xilda baholash mumkin emas. Bu juda murakkab masala: davlat rahbari kim, uning yuridik va amaliy maqomi qanday? U kim - qonun chiqaruvchimi, ijro hokimiyatining rahbarimi yoki hеч bir tarmoqqa tegishli emasmi? Davlat mexanizmidagi davlat rahbari qanday o'rin tutadi, bunga bir qolipdagi javob yo'q. Gap shundaki, har bir mamalakatda bu mansab egasining tutgan o'rni o'ziga xos. Ammo shunga qaramay ularning davlat rahbari institutiga bergan ta'rifini ifoda etuvchi umumiy belgilari, o'ziga xos aniq tomonlarini alohida ko'rsatish mumkin.

Masalan, L.M.Entonning fikricha, davlat rahbari –bu "davlat instituti iyerarxiyasida rasman eng yuqori o'rinni egallagan, mamlakatning ichki siyosiy hayotida va boshqa mamlakatlar bilan munosabatlarida oliy vakolatni amalga oshiruvchi rasmiy shaxs (organ)dir". Buni eng universal ta'rif, deyish mumkin.

V.A.Starodubskiy davlat rahbariga lo'ndaroq ta'rif bergan, uning fikriga ko'ra, davlat rahbari – bu davlatni xalqaro munosabatlarda ifoda etuvchi va oliy davlat aktlarini amalga oshiruvchi organ hisoblanadi.

A.A.Mishinning ta'kidlashicha, davlat rahbari ijro hokimiyatining sohibi, davlatning xalqaro munosabatlaridagi oliy vakilidir.

A.M.Osavolyuk davlat rahbariga quyidagicha ta'rif beradi: "Davlat rahbari – davlat organlari tizimida oliy lavozimni egallagan, mamlakat ichkarisida va tashqarisida uning oliy vakili, millat va davlat (xalq va davlat) birligining ramzi bo'lgan lavozimi shaxs yoki organdir.

Umumiy ko'lamda olib qaraganda davlat rahbari yo monarx (mutlaq hokim), yoki prezident, yohud (kamdan kam holatlarda) jamoa shaklidagi organ bo'lishi mumkin.

Ho'sh, konstitusiyalar davlat rahbari institutlarga qanday yondoshmoqdalar. Yaponiya konstitusisiga ko'ra, davlat rahbari eng oliy hisoblangan "Imperator" unvoniga egadir. Konstitusiyaning 1-moddasida uning davlat organlari tizimida tutgan o'rniga ta'rif beriladi. Jumladan, undan shunday deyilgan:

"Imperator davlat ramzi va xalqning ajralmas birligi hisoblanadi, uning maqomi suveren hokimiyat sohibi –xalqning hohishi irodasiga qarab belgilanadi".

Ispaniyaning hozirgi Konstitusiyasida davlat rahbari –qirolning roli va tutgan o'rnini to'g'risida aniq ma'lumot keltiriladi. Uning 50-moddasida shunday deyiladi:

"Qirol Ispaniya davlatining rahbari, uning birligi va barqarorligining ramzidir. U davlat institutlari tomonidan to'g'ri faoliyat ko'rsatilishining kafolati hisoblanadi. Xalqaro munosabatlarda Ispaniyaning, ayniqsa tarixan mushtarak bo'lgan millatning oliy vakolatini, shuningdek unga Konstitusiya va qonunlar bilan berib qo'yilgan funksiyalarni amalga oshiradi".

Fransiya Konstitusiyasida Prezidentning tutgan o'rnini, roli va ahamiyati ancha aniq belgilangan (5-modda);

"Respublika Prezidenti konstitusiyaga rioya etilishini kuzatib boradi, o'z arbitrajleri orqali davlat organlarining mu'tadil faoliyatini, shuningdek davlat hokimiyatning mustaqilligini ta'minlaydi. U milliy mustaqillik, hududiy yaxlitlik, hamjamiyatlar bitimlari va shartnomalariga rioya etilishining kafolati hisoblanadi."

Keltirilgan misollardan ko'rinadiki, davlat rahbari xalq tomonidan saylangan prezident yoki monarx bo'lsa ham konstitusiyalarda ularning davlatdagi haqiqiy roli to'liq bayon etilmaydi va aniq ta'rif berilmaydi. Davlat rahbari parlament tomonidan saylangan prezident bo'lgan hollarda, konstitusiyada uning yuridik, siyosiy va boshqa o'rnini to'g'risida hech narsa deyilmaydi. Bu konstitusiyalarda prezidentni saylash tartibi bayon qilinadi va uning muhim funksiyalari sanab o'tiladi xolos. Bu konstitusiyaviy nazariya nuqtai nazaridan unchalik to'g'ri emas. Bunday holatlarda qonun chiqaruvchilar davlat rahbarining roli hammaga ma'lum va uni tushuntirib o'tirishning hojati yo'q, deb o'ylashlari mumkin.

Italiya va Germaniya Federativ Respublikasi konstitusiyalarida davlat boshlig'i qanday organ degan savolga javob bo'lmaydi. Masalan, Italiya konstitusiyaning 83-moddasida prezident parlament a'zolarining qo'shma majlisi tomonidan saylanishi va uni saylash tartibigagina belgilab qo'yilgan.

84-moddada esa prezidentlik nomzodlariga talablar to'g'risida, 85-moddasida prezident 7-yilga saylanishi va saylov o'tkazish muddati haqida ma'lumot beriladi. 86-moddada prezident o'z vazifalarini bajara olmagan holatlarda uning lavozimini vaqtincha boshqarib turish tartibi bayon qilingan. Faqat 86-moddada respublika prezidenti –davlat rahbari ekanligi va u milliy birlikning ifoda etishi ma'lum qilinadi. Shu yerda uning konstitusiyaviy vakolatlari sanab o'tiladi.

Germaniya Federativ Respublikasi konstitusiyasida respublika prezidenti-davlat rahbari yoki u milliy birlikni ifoda etishi haqida xatto eslatilmagan. Uning 54, 55, 56 - moddalarida prezidentning vakolatlari saylanish qasamyod etish tartibi prezidentni lavozimidan ozod etish ko'rsatilgan.

Yuqorida aytilganlardan ko'rinadiki, davlat rahbarining huquqiy va haqiqiy maqomi, davlat hokimiyati boshqaruvini amalga oshirishda uning roli mazkur davlatdagi mavjud boshqaruv shakliga, siyosiy tizim va boshqa shart-sharoitlarga, shuningdek mamlakatda tarkib topgan an'analar, urf odatlar va sud presedenti xarakteriga bog'liqdir.

Nomigagina hokimiyatni egallab turgan davlat boshlig'i faqat qonunlarni imzolaydi. Uning imzosi qonunni kuchga kirganligini bildiradi.

Davlat rahbari qonun asosida ma'lum tadbirlardan o'tib, fuqarolar va boshqa davlatlar tomonidan davlat rahbari sifatida e'tirof etilgan taqdirdagina qonuniy o'z lavozimiga kirishgan hisoblanadi. Qonuniylashtirish usullari turlicha bo'lishi mumkin: agar u respublika bo'lsa saylangan prezident, agar monarxiya bo'lsa, o'z lavozimini meros tariqasida olgan monarx davlat rahbari bo'ladi.

Davlat rahbari hokimiyatni zo'rlik bilan egallab olgan bo'lsa noqonuniy hisoblanadi. Bunday holatlarda ham davlat rahbari davlat mashinasining qolgan bo'g'inlarini ham o'ziga bo'ysundirib, davlat boshlig'i funksiyasini bajarishi mumkin. Noqonuniy davlat rahbari diktator, yoki kuch ishlatib hokimiyatni bosib olgan harbiy xunta bo'lishi mumkin.

Davlat mexanizmi tizimida davlat rahbarining o'rni to'g'risidagi masala juda murakkab. Uning haqiqiy o'rnini belgilashga harakat qilganingizda har safar

istisno qoidalarga, qarama-qarshi fikrlar va misollarga duch kelasiz. Ko'pincha davlat rahbarini ijro hokimyatiga tegishli ekanligini ishonch bilan ta'kidlaydilar. AQShning jahonga mashhur Konstitusiyaning 2-moddasida ijro hokimiyati AQSh prezidentiga tegishli deb baxolangan, fikrimizcha, davlat rahbari instituti ko'pchilik holatlarda alohida mustaqil kompleksni tashkil qilib, hokimiyatning biror tarmog'iga uni kiritishga harakat qilish noto'g'ri va samarasizdir.

I. Bob Xorijiy mamlakatlarda davlat boshlig'i.

1.1 Davlat boshlig'i mamlakat ichida va tashqi aloqalarida oliy vakil sifatida.

Agar davlat boshlig'ining asosiy roli, funksiyasini belgilashga xarakat qilinsa, uning o'rnini aniq belgilab beradigan biror xususiyatni ifodalash mumkin bo'lsa, bunda davlat rahbarini ikki asosiy belgisini ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi model, hokimiyatga ma'lum bo'lgan funktsiya davlat rahbarining mamlakat yo'lboshchisi ekanligidir. Yo'lboshchi tushunchasi rasmiy va amaliy bo'lishi mumkin. U ushbu har ikki sifatni o'zida mujassamlashtirish, ya'ni de-yure (rasman) va defakto (amalda) rahbar bo'lishi kerak. Bunga mutloq monarx yoki xalq saylagan respublika prezidenti misol bo'la oladi. Mamlakatning bu yo'lboshchisi belgilangan tartibda hokimiyatni qo'lga kiritgan va xalq tomonidan e'tirof etilgan qonuniy yo'lboshchi hisoblanadi.

Ikkinchi model, ko'pchilik fuqarolar tomonidan e'tirof etilgan asosiy funktsiya davlat boshlig'ining hokimiyat, davlat ramzi ekanligida ko'rinadi. Bu shaxs davlat hokimiyatini o'zida mujassamlashtirib uni boshqa davlat tuzilmalari va xorijiy davlatlarga nisbatan namoyon etadi.

Jahon amaliyotini o'rganish jarayonida davlat rahbari lavozimini oltita asosiy variantlari mavjud ekanligini ko'rish mumkin.

Birinchi variant u juda qadimiy va an'anaviy bo'lgan monarx davlat rahbari hisoblanadi. Monarxning lavozim egallashida uch xil usul mavjud:

- 1) taxtning meros bo'lib qolishi (monarxiya keng tarqalgan davlatlar Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Belgiya, Yaponiya, Tailand va boshqalar);
- 2) monarxning o'z oilasi (sulola oqsoqollari) tomonidan tayinlanishi yoki saylanishi, Saudiya Arabistoni, Afrikada Svazilend qirolligi, Kator davlati va boshqa yaqin Sharqdagi monarxiya tuzumidagi davlatlarda mavjud;
- 3) monarx boshqa monarxlar, (federasiya subyektlarining davlat boshliqlari tomonidan saylanadi). Bu vaqti-vaqti bilan saylanib to'radigan monarxiya. Malayziya bunga misol bo'la oladi. Bu yerda sultonliklar rahbari besh

yil muddatga saylanadi. Birlashgan Arab Amirliklarida ham huddi shunday tizim mavjud.

Ikkinchi variant-prezident - davlat rahbari. Bunda ham lavozim egallashning uch xil usuli mavjud:

- 1) xalq, fuqarolar tomonidan bevosita saylanishi;
- 2) parlament tomonidan saylanishi;
- 3) tegishli saylovchilar jamoasi tomonidan saylanish. Saylovchilar parlament a'zolari va mahalliy hokimyat organlarining vakillari bo'lishi mumkin.

Uchinchi variant nostandart ko'rinishi. Gap parlament tomonidan ma'lum muddatga tegishli organ tomonidan saylanadigan davlat rahbari to'g'risida bormoqda. Sobiq ittifoq davrida shunday variant qo'llanilgan edi. Hozir esa Kubada shu tizimga rioya etiladi.

To'rtinchi variant o'rindoshlik asosida davlat rahbari. Germaniya Federativ Respublikasida bosh vazir hukumat boshlig'i vazifasini bajaradi. U yerda har bir federasiya subyekti-yer o'z parlament va hukumatiga ega, ammo bu davlat tuzilmasining rahbari funksiyasini hukumatning rahbari bajaradi.

Beshinchi variant general gubernator - davlat rahbari. General- gubernator Kanada, Astraliya, Yangi Zelandiya, Barbados, Yamayka va boshqa davlatlarda mavjud. General- gubernator –bu sof ma'nodagi davlat rahbari emas, balki u Buyuk Britaniya manarxining vakili hisoblanadi.

Oltinchi variant o'ta nostandart ko'rinishda namoyon bo'lib, normal davlat mexanizmi doirasidan chiqib ketish holatida yuz beradi. Bu kuch ishlatib hokimyatni noqonuniy egallagan va davlatni yakka o'zi yoki jamoat bo'lib boshqarayotgan rahbarlik hisoblanadi. Ko'pincha harbiylar mamlakatda hokimiyat to'ntarishini amalga oshiradilar. Bunga o'zini davlat rahbari, oliy harbiy boshliq deb e'lon qilgan harbiy hunta misol bo'la oladi.

Davlat rahbari – davlatning shunday huquqiy va siyosiy arbobi, uning barcha fazilatlari o'ziga xos va o'ziga mos, biz faqat uning umumiy vakolatlarini taxlil qilamiz, bunda respublika va monarxiya shakllarini alohida ham ajratib o'tirmaymiz. Davlat rahbarlarini umumiy vakolatlarini yoritishda ular haqiqatdan

ham monarx uchun va prezident uchun universal yoki xarakterlimi yohud ularning ba'zilarida bu hususiyatlar mavjud emasmi degan savollarga to'xtalamiz.

Adabiyot, manbalarda davlat rahbarining vakolatlariga oid turli ma'lumotlar keltiriladi, ularni umumlashtirganda eng asosiy va o'ziga xos vakolatlarini ajratib ko'rish mumkin.

Fikrimizcha ular orasida eng universali davlat rahbarlarining vakillik funksiyalaridir. Davlat rahbari mavjud urf-odatlar, qoidalar va qonun normalari muvofiq o'z mamlakatini ichki va tashqi munosabatlarda etadi, bunday munosabatlar ildizi aslida qadimiy davrlarga borib taqaladi.

Vakillik etish funksiyasi asrlar mobaynida amal qilib kelayotgan qoidalarga muvofiq bajariladi. Davlat rahbari turli tantanali marosimlar va milliy bayramlarni boshqaradi. U muhim tantanalarda ishtirok etadi. Muhim sanalar, voqyealar munosabati bilan o'z xalqiga tabriklar va maktublar yo'llaydi, parlamentga rasman murojaat qiladi. Bu maktublar va murojaatlar diniy marosim, eskicha urf-odat xarakteriga ega bo'lib, mamlakatdagi biror voqyeani bog'iq.

O'sha ko'p asrlik an'analarga ko'ra, davlat boshlig'i xorijiy mamlakatlarda o'z vakillarini diplomatik akkreditasiyadan o'tkazadilar. Davlat rahbari xorijiy davlat vakillarini qabul qiladi, ular ishonch yorligi va elchini chaqirib olish yorligini topshiradilar.

Horijiy elchilar mamlakatga kelib, davlat boshlig'i qabulida bo'lganidan keyin akkreditasiyadan o'tgan hisoblanadilar.

Davlat rahbari rasmiy safarda bo'ladi, boshqa davlatlarning rahbarlari bilan uchrashadi, turli xalqaro anjumanlarda ishtirok etadi. Davlat rahbari biror davlatga tashrif buyurganda unga izzat-ikrom ko'rsatiladi, faxriy qorovul saf tortadi, davlat madhiyasi yangraydi, mamlakatlarning gimnlari ijro etiladi.

Bunday safarlar xalqaro aloqalarni mustahkamlaydi, tantanali uchrashuv mamlakatga bo'lgan hurmatni ifodalaydi. Davlat rahbari muzokaralar o'tkazish, xalqaro shartnoma va bitimlarni imzolash huquqiga ega. Buning uchun hukumat tomonidan ma'lum topshiriq talab etilmaydi, bunday huquqni uning lavozimi taqozo etadi. Davlat rahbari har doim keng ma'nodagi turli aloqalarda, mamlakat

ichkarsida va tashqarisida davlat, millat, xalq vakili hisoblanadi. Shuningdek uchun vakillik funksiyasi uning mamlakat bosh diplomati ekanligini ifodalab beradi.

Ba'zan davlat rahbari vakolati to'g'risida to'xtaganimizda xalqaro munosabatlar yoki tashqi siyosat sohasidagi faoliyatlari ham tilga olinadi. Darhaqiqat, davlat rahbari shunday vakolatga ega.

Agar prezident yoki mutloq monarx kuchli bo'lsa, uning xalqaro munosabatlar va tashqi siyosiy sohasdagi vakolatlari ham salmoqli va aniq-ravshan bo'ladi. U o'z tashabbusi bilan uchrashuvlar o'tkazadi, muzokoralar olib boradi, shartnomalarga imzo qo'yadi, ya'ni mamlakatdagi "birinchi" shaxs vakolatni amalga oshiradi.

Agar parlamentar respublikaning prezidenti yohud konstitusiyaviy monarxiyaning monarxi bo'lsa, bu harakatlarning hammasini hokimiyatning kuchli tarmoqlari hisoblangan ijro va qonun chiqaruvchi hokimyat topshirigi bilan amalga oshiradi. Bunday holatda davlat rahbari ikkinchi vakolatli shaxs funksiyasini bajaradi.

Ikkinchi guruh vakolatlari turkumiga mazmunan davlat boshqaruvi sohasidagi vakolatlarni kiritish mumkin. Bu vakolatlar quyidagilardir:

davlat rahbari barcha hollarda ham hukumatni tayinlash va uni iste'foga chiqarish tadbirlarida ishtirok etadi, ya'ni ijro hokimiyatini shakllantirishda qatnashadi. Uning bu boradagi real huquqi va vazifasi belgilangan.

Parlamentar respublikalarda va monarxiyalarda davlat rahbari mavjud qonun, urf-odatlar va sud presedenti, jami yozilgan va yozilmagan qonunlar buyicha parlament ishonchini qozongan shaxsni bosh vazir, hukumat boshlig'i qilib tayinlashga majbur. Qoidaga ko'ra, bular saylovda g'alaba qozongan partiyalarning rahbarlari bo'lishadi. Bunga Buyuk Britaniya misol bo'la oladi. Buyuk Britaniya Qirolchasi parlamentning quyi palatasiga bo'lgan saylovlarda g'alaba qozongan partiya rahbarini Bosh vazir vazifasiga tayinlaydi. Monarxning bu taynlovchi esa saylov natijalariga bog'liq, o'zi tanlash imkoniyatiga ega emas.

Davlat rahbari ijro hokimiyatiga ham egalik qilsa, ya'ni kuchli prezident modeli mavjud bo'lsa, ularning vakolati ancha salmoqli va keng hisoblanadi. Prezidentlik respublikasida prezident barcha vazirlar va qoidaga a'zolarini tayinlaydi va mahkama ko'ra ushbu mahkamani o'zi boshqaradi. To'g'ri, vazirlarni tayinlash yoki ishdan olish yuzasidan qo'shimcha shartlar va qoidalar bo'lishi hamda ular mustahkamlanib qo'yilishi mumkin, ammo ular davlat rahbari vakolatiga jiddiy ta'sir etmaydi. Masalan. AQShda vazirlar (ular davlat kotiblari deyiladi). Senatning "kengashi va roziligiga" muvofiq prezident tomonidan tayinlanadi. Aksariyat holatlarda Senat prezident ko'rsatgan nomzodlarga e'tiroz bildirmaydi. Parlamentar respublika hisoblangan Italiyada esa prezident parlament tomonidan ko'pchilik ovoz bilan qo'llab-quvvatlangan hukumat a'zolarining har qanday ro'yxatini tasdiqlaydi. U yerda prezident va parlament o'rtasidagi munosabatlarning o'zgacha modeli amal qiladi.

Davlat boshqaruvi sohasidagi davlat rahbari vakolatiga uncha yuqori darajada bo'lmagan boshqa mansabdor shaxslarni tayinlashni ham kiritish mumkin. Bunday mansabdor shaxslarning qatoriga sud hokimiyati vakillari kiradi. Ba'zi bir mamlakatlarda sudyalarning tayinlanishi davlat rahbarining o'z nomidan e'lon qilingan hujjatlari bilan rasmiylashtiriladi.

Ba'zi bir mamlakatlarda ijro hokimiyatining muhim hujjatlari davlat rahbari nomidan e'lon qilinadi. Yagona qoida-tartibni ijro etish kontrassignasiya asosida bo'ladi.

Davlat rahbarining navbatdagi vakolatlar guruhiga parlament faoliyati bilan bog'liq bo'lgan vakolatlari va qonunchilik sohasidagi vakolatlarini kiritish mumkin. Ba'zan bu vakolatlarni ajratib taxlil etishadi, bizningcha u bir-biriga juda yaqin, chunki parlamentga nisbatan vakolat har doim qonun chiqaruvchi organ bilan munosabatini anglatadi.

Bir qator mamlakatlarda davlat rahbari parlamentning navbatdagi va navbatdan tashqari sessiyasini chaqirish, sessiyani ochish va yopish, ba'zi hollarda quyi palatani (yoki har ikki palatani) tarqatib yuborish va yangi parlament saylovini o'tkazish kabi huquqlarga ega.

Jahondagi barcha mamlakatlarda amalda davlat rahbari qonunchilik sohasida ma'lum (huquqiy nuqtai nazardan ancha muhim) huquqlarga ega: qonunchilik tashabbus huquqi, qonunlarni tasdiqlash va imzolash huquqi yoki qonunlarni matbuot sahifalarida e'lon qilish huquqi shular jumlasiga kiradi. Barcha davlat rahbarlari qonunchilik tashabbusi huquqiga ega emas, ammo ko'pchilik mamlakatlarda davlat rahbari bunday huquqlarni saqlab qolganlar, hatto ayrim mamlakatlarda "prezident tashabbusi" degan atama ko'p qo'llaniladi. Vaholanki, bu yerda gap hukumat qonunchilik tashabbusi ustida borayotgan bo'ladi.

Ba'zi hollarda hukumat davlat rahbarining qonunchilik tashabbusidan foydalanib, u orqali o'z qonunlarini (aniq qonun loyihasini) o'tkazib oladi. Davlat rahbari o'z nomidan parlamentga qonun loyihasini kiritadi, bu aslida hukumat tomonidan tuzilgan qonun loyihasi hisoblanadi.

Umuman olganda, qonunchilik sohasida davlat rahbarining huquqi qonun tayyorlash jarayonining boshlanishida va oxirida, ya'ni qonunchilik tashabbusi bosqichida va matbuotda e'lon qilish bosqichida amalga oshiriladi. ko'pgina mamlakatlarda davlat rahbari qonun loyihasini tasdiqlashga qarshi chiqishi va uni rad etishi mumkin. Bunga veto qo'yish (tasdiqlash) huquqi deyiladi. Vetoning mutlaq va nisbiy turlari mavjud.

Mutloq vetoning ma'nosi shuki, qonun yoki qonun loyihasiga veto qo'yilgandan (imzolash rad etilganda) keyin u muhokama etilmaydi. Mutloq veto bu o'tmish unsuri, monarhiyaning dualistik yoki mutloq shaklida tarixan qo'llangan. Hozirgi vaqtda mutloq veto amalda uchramaydi. Buyuk Britaniya monarxi hamjamiyat tarkibiga kiruvchi mamlakatlarning general-gubernatorlari rasman mutloq veto qo'yish huquqiga egadir, ammo u amalda qo'llanilmaydi.

Rossiya prezidenti shved ishchisidan 8 barobar va Polsha ishchilaridan 10-12 barobar kam maosh oladi, deydi Butun jahon iqtisodiy anjuman ekspertlari, B.N.Yelsinning yillik maoshi 3328 dollarga teng bo'lgan.

Dunyoda iqtisodiy va harbiy qudrati yuqori bo'lgan mamlakat AQSh prezidenti yiliga 200ming dollar maosh oladi. Singapur bosh vaziri dunyoda maosh miqdori eng yuqori belgilangan davlat rahbari –uning yillik maoshi 810

ming dollarni tashkil etadi. Yaponiya bosh vaziri oladi undan ikki barobar kam, AQSh prezidentidan esa ikki barobar ko'p maosh.

Sobiq qardosh davlatlarning prezidentlari: Vengriyada 24,5 ming va Polshada 28 ming dollar maosh oladilar. Chexiya prezidenti yiliga 17,5 ming dollar maosh oladi, xolos.

Ekspertlar fikricha, mamlakat iqtisodiyotining holati uning siyosiy davlat arboblarning maoshini belgilamaydi: u madaniyat, urf-odatlar bilan bog'liq. Shuni eslash kerakki, kambagal uncha bo'lmagan shved bosh vaziri qirol huzuriga qabul uchun tramvayda borgan.

Nisbiy veto shuni anglatadiki, davlat rahbari tomonidan imzolanmagan qonun parlamentga qayta ko'rish uchun qaytariladi Nisbiy vetoning oddiy va murakkab kurinishi mavjud Oddiy qoldirilgan vetoning ma'nosi shuki, qonun davlat rahbari imzosisiz joriy qilinishi uchun uni parlament tomonidan qayta qabul qilish ya'ni birinchi safar qanday qabul qilingan bo'lsa, ikkinchi safar ham shunday qabul qilinishi zarur. Agar birinchi bor u ko'pchilik ovoz bilan qabul qilingan bo'lsa, keyingisida ham shunday ko'pchilik ovoz vositasida qabul qilinishi talab etiladi. Vetoning bunday varianti Fransiyada qo'llaniladi.

Murakkab vetoni bartaraf etish ancha murakkab tartibni taqozo etadi, bu tartib davlat rahbari o'z vetosini qo'ygach, qonun parlament tomonidan qoidaga ko'ra, malakali ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinishini ta'qazo etadi. Masalan, AQShda agar prezident qabul qilinadigan qonunga veto qo'ysa, takror muhokamada kongress palatasida har ikki palatadan 2/3 ovoz (Vakillar palatasi va Senat) to'planishi talab etiladi. Shundan so'ng qonun prezident imzosisiz ham kuchga kiradi. Yuqoridagilardan tashqari vetoning yana ikki turi mavjud. Tanlab olinadigan vetoning ma'nosi shuki, prezident qonunga umuman rozi bo'lib, qonunning ma'lum qismi yoki moddasini o'zgartirishni tarafdori bo'ladi, talab qondirilgach prezident uni imzolaydi "Cho'ntak" vetosi atamasi Amerikaga xos. Qonunda "Cho'ntak" veto degan gap yo'q. Bunda gap reglament qoidasidan foydalanish ustida bormoqda. Uning mohiyati shundaki, Kongress qabul qilgan qonunni imzolash uchun prezidentga 10 kun beriladi. Agar kongress prezidentga

qonunni sessiya tamom bo'lishidan 10 kundan kam qolganda taqdim etsa va prezident uni imzolamagan bo'lsa, bu qonun qabul qilinmagan hisoblanadi, chunki uni takror ko'rishga vaqt qolmaydi. "Cho'ntak" vetosi tez-tez qo'llanib turiladi. Ba'zi bir senatorlar bunday vaqtni cho'zish uchun (prezidentga uylab ko'rish uchun to'la 10 kun qoldirmaslik) imkoniyatlaridan foydalanadi va prezident ular tomonida turishini va qonunni imzolamasligini bilishadi.

1.2 Davlat boshlig'ining yuridik shakllari.

Ba'zi bir mualliflar davlat rahbarining qonunchilik sohasidagi vakolatiga parlamentning yuqori va quyi palatalari a'zolarini tayinlash huquqini qushishni taklif etadilar. Masalan, Buyuk Britaniya monarxga lordlar Palatasi a'ziligiga o'z vakili nomzodini tayinlash huquqi berilganligi ma'lum. Kanadada Britaniya monarxini ifodalovchi va amalda davlat rahbari bo'lgan general-gubernator monarx nomidan parlamentning yuqori palatasi –Senat a'zolarini tayinlash huquqiga ega. Bunday huquq biroz chegaralangan tarzda Hindiston va Italiya prezidentlariga berilgan: ular yuqori palatani bir necha a'zolarini tayinlash huquqiga egadir.

Turli me'yoriy va me'yoriy bo'lmagan hujjatlarni qabo'l qilish amalda barcha davlat rahbarlariga berilgan huquqdir. Bu hujjatlar dekret, proklamasiya, ijroga oid farmoyishlar bo'lishi mumkin. Davlat rahbarining hujjatlar chiqarish, huquqini qonunchilik vakolatlari yoki uni qonunchilik faoliyatida ishtiroki bilan aralashtirib yubormaslik kerak: qonun parlament tomonidan qabo'l qilinadi, hujjatlarni chiqarish davlat rahbarining mustaqil faoliyati (funksiyasi)dir, chunki bu hujjatlar o'z tabiatiga ko'ra, qonunga asoslangan hujjatlar hisoblanadi.

Parlamentar respublikalar va monarhiyalarda davlat rahbari nomidan chiqarilgan hujjatlar, amalda hukumat hujjatlaridan iborat bo'lib, bunda hukumat o'z hujjatlarini davlat rahbari nomidan rasmiylashtirishda foydalanadi.

Prezidentlik respublikalarida, dualistik monarxiyalarda davlat rahbarining hujjatlari mustaqil xarakterga ega bo'lib, davlat rahbari ijro xokimiyati sohibi sifatida huquqning muhim ijodkori jumlasiga kiradi, ba'zi hollarda u mustaqil huquqiy tartibga solish sohasiga ega shaxs sifatida, mamlakat hayotida o'z o'rniga ega.

Davlat rahbari vakolatining muhim qismi harbiy soha bilan bog'liq, jahondagi ko'pchilik mamlakatlarda davlat rahbari rasman (yuridik jihatdan) oliy bosh qo'mondon deb e'lon qilinadi. Buhronli vaziyatlarda va harbiy xarakatlarda

davlat rahbarining imzosi bilan maxsus harbiy aktlar, qonunlar, direktivalar chiqariladi.

"Kuchli" prezident va monarx mamlakatlarida bir qator qator harbiy masalalarni yechish-davlat rahbarining real huquqi hisoblanadi. Masalan, amerikaliklar bu sohani prezident huquqi tarkibiga kiritadilar va uni oliy Bosh qo'mondon deb ataydilar.

Prezident harbiy paradni qabul qiladi, faxriylarni tabriklaydi, harbiy qushinlarni mudofa qobiliyatini nazorat qiladi va h.k. Bu sohada kundalik vakolat professional harbiy tomonidan amalga oshiriladi: shtab genarallari, mudofaa vazirligi va qo'shin turlarining turli shtablari shular jumlasidandir. Davlat rahbari yuqoridagi professional harbiylar harakatini muvofiqlashtirib turadi.

Parlamentar respublikalarda va monarxiyalarda bunday muvofiqlashtirishni ijro hokimiyati boshlig'i-bosh vazir amalga oshiradi.. Direktivalar harbiy sohadagi qarorlar agar zarur bo'lsa, davlat rahbarining nomidan chiqariladi.

Davlat boshlig'ining Bosh qo'mondon sifatidagi bir guruh vakolatlari ichidan ayrimlarini ajratib ko'rsatish mumkin-bu urush va tinchlik masalasi bilan bog'liq huquqidir.

Urush e'lon qilish va tinchlik bitimini tuzish bilan bog'liq. ko'p hollar bunday harakatlarga parlament sanksiyasini talab etadi. Bu xarakatlarning barchasi davlat rahbari siymosida ijro etiladi. U bo'xronli vaziyatlardan chiqish, harbiy holatni e'lon qilish harbiy qo'shinlarni qaysi frontga kiritish yohud harbiy xarakatlarni to'xtatish to'g'risida xalqqa axborot beradi.

AQShning kuchli prezidentlari ham bunday huquqdan hatto o'z vakolatini oshirib foydalangan.

1845 yilda AQSh prezidenti Polka tashabbusi bilan Meksikaga qarshi, 1898 yil prezident Mak-Kinli tashabbusi bilan Ispaniyaga qarshi urush e'lon qildi. Kongress urush boshlashga rozilik sanksiyalarini urush tamom bo'lgandan keyin bergan. Bu urushlar juda qisqa davom etgan. Shuningdek, 1950 yilda Koreyaga, 1970 yilda Vyetnamga qarshi urush e'lon qilingan.

Odil sudlov sohasida davlat rahbari muhim vakolatga ega. Bunga oliy sud lavozimlariga tayinlash huquqi ham kiradi. Vaholanki, u vazifani davlat boshqaruvi sohasiga ham kiritish mumkin edi. Odil sudlovni amalga oshirish sohasidagi masalalarni hal etadigan turli kengash va maslahat organlarida raislik qilish ham davlat rahbari vakolatiga kiritilgan. Davlat rahbari amalda hamma mamlakatlarda avf etish, hukmni ijro etishni keyinga qoldirish huquqlariga ega. Avf etish va hukmini keyinga qoldirish huquqlari real tarzda qarab chiqiladi, maxsus organlar va shaxslar (yurist) tomonidan tayyorgarlik ko'riladi va shu masalada maxsus qaror qabul qilinadi. Bu qaror davlat rahbari akti bilan rasmiylashtiriladi.

Ba'zi bir mamlakatlarda prezident jazoni yengillashtirish, almashtirish va hattoki hukmini o'zgartirish huquqiga ega.

Shaxslarning huquqiy maqom sohasidagi vakolat ham davlat rahbari vakolati jumlasiga kiradi. Gap alohida fuqarolarga qaratilgan vakolat to'g'risida bormoqda. Bu orden va medallar bilan mukofotlash, turli unvonlar, fuqarolik maqomini berish kabilarni o'z ichiga oladi.

Jahondagi ko'pgina mamlakatlarda davlat rahbari xorijliklarga fuqarolik berish masalalarini hal qiladi. Davlat rahbari nomidan shaxslarning fuqaroligidan mahrum etishlik mumkin. Davlat rahbarining akti bilan yoki uning nomidan fuqarolik tiklanishi, huddi shunday tarzda siyosiy boshpana berilishi ham qabul qilingan.

Davlat havfsizligi sohasida muayyan vakolat ko'pchilik davlat rahbarlariga xos vakolatdir. Razvedka, kontrazvedka, ko'poruvchilik faoliyatiga qarshi kurash bilan bog'liq masalalarni muvofiq lashtirish huquqi prezidentning havfsizlik sohasidagi vakolat doirasiga kiradi.

Davlat rahbari ko'pincha ushbu soha bilan shug'ullanuvchi (milliy xavfsizlik kengashi) maxsus idoralararo organlarni boshqaradi, milliy xavfsizlik bo'yicha yordamchilarga ega bo'ladi.

Bir qator mamlakatlarda qonunchilik davlat rahbariga favqulodda holat joriy etish huquqini bergan. Shunday qilib, davlat rahbarini favqulodda vaziyat sohasida

vakolati yoki favqulodda vakolati mavjud. Ko'pchilik mamlakatlarda bu vakolat konstitutsiya moddalarida nazarda tutilgan. (Masalan, Fransiya konstitutsiyasining 16 moddasi), ba'zi mamlakatlarda maxsus qonunlar ishlab chiqilgan. GFRda favqulotda qonunchilikka bag'ishlangan qonunlar majmui mavjud. Mamlakatda bunday qonunlarda ko'zda tutilgan vaziyat vujudga kelsa favqulotda holat e'lon qilinadi. Bunda qonun bo'yicha mamlakatga prezident emas, balki hukumat boshlig'i-kansler rahbarlik qiladi, chunki GFR parlamentar respublika hisoblanadi.

Davlat boshlig'i vakolatning yana bir o'ziga xos guruhi ustida to'xtalamiz, prezidentning bu vakolati nomlanmaydi ham, boshqalaridan ajratib ko'rsatilmaydi ham. Bu mamlakat iqtisodiy yo'lini aniqlash sohasidagi davlat rahbarining vakolatidir. Bu vakolat hozirgi vaqtda juda muhim ahamiyat kasb etmoqda, iqtisodiy strategiya, iqtisodiy ustivorlikni aniqlab olish u yoki bu prezidentlik lavozimiga nomzodning saylovoldi dasturining tub mohiyatini tashkil etadi. Ronald Reyganni misol tariqasida keltiraylik. U prezidentlikka nomzod bo'lganda "Reyganomika" tezisini ilgari surdi, ya'ni bu soliq yukini qayta taqsimlash, yirik biznesni o'ta yuqori soliqlardan ozod qilish, ijtimoiy yordamga davlat xarajatlarini kamaytirish kabilarni qamrab olgan edi. Bu g'oya haqiqatdan ham iqtisodiy strategiya edi:

AQSh iqtisodiyotini ko'tarish tarafdorlari prezident Ronald Reyganning iqtisodiy faolikni oshirish, iqtisodiyotning hamma yo'nalishlari va sohasini rivojlantirish tadbirlarini qo'llab-quvvatladilar. Iqtisodiy strategiya yunalishlarni tanlash ko'pincha mamlakat va fuqarolarning kelajak taqdirini hal qiladi. Shuning uchun iqtisodiy strategiya sohasida prezident vakolatini alohida guruhga ajratish maqsadga muvofiq. Bu vakolat davlat rahbarini bosh iqtisodchi ekanligini belgilaydi. Amerikaliklar o'z prezidentlari to'g'risida gapirib, uni bosh diplomat, qonunchi, qo'mondon deyishadi, endilikda ular qatoriga mamlakatning bosh iqtisodchisi atamasi qo'shildi.

Darhaqiqat, bunday vakolatlar davlat rahbarining kuchli hokimyatiga: bu prezidentlik respublika prezidenti yoki mutloq yoki dualistik monarxiyaning monarxiga xos bo'ladi.

Va nihoyat davlat rahbarini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi masalaga to'xtalib o'tamiz. Monarxlik umrbodga egalik qiladigan lavozim bo'lgani uchun uni vazifasidan bo'shatib bo'lmaydi, ammo monarx ruhiy holati yoki salomatligining yomonligi tufayli o'z vazifasini bajara olmagan taqdirda regentlik instituti mavjud, bunga ko'ra yetakchi siyosiy arboblardan biri regent (ya'ni homiy) qilib tayinlanadi va u davlat rahbari vazifasini bajaradi, shaxzoda voyaga yetmagan bo'lsa ham regent tayinlanadi. Ba'zi holatlarda parlament monarxni vazifasidan chetlashtirish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Bu masala sulola, qurollik oilasi yoki qonun chiqaruvchi organ yohud qonunchilik va ijro hokimiyatining qo'shma qarori bilan hal qilinadi.

1.3. Davlat boshlig'ining qonunchilik jarayonidagi ishtiroki. Qonunchilik tashabbusi.

Davlat rahbari –prezidentga nisbatan ba'zi holatlarda impichment tartibini qullash nazarda tutiladi. Impichment –bu davlat rahbari prezidentning noqonuniy harakati uchun javobgarligini anglatadi. Agar prezident konstitusiyaga, qonunga hilof ish qilsa, yoki biror qonunbuzarlikka yo'l qo'ysa yohud davlat rahbariga nomunosib xarakatlarni amalga oshirsa impichment qo'llaniladi. "Impichment " so'zi inglizcha bo'lib, XIY asrning oxirlaridan boshlab, Angliya monarxiyasidagi yuqori lavozimli shaxsni qoralashda ishlatilgan. So'ngra bu atamani amerikaliklar qabul qilib, Konstitusiyaga kiritishdi. AQSh prezident iga hiyonatga yo'l qo'yganda, poraho'rlik qilganda yohud boshqa og'ir jinoyat sodir etganda impichment tartibi qo'llanishi belgilangan. Impichment tartibini parlament-AQSh Kongressi amalga oshiradi. Quyi palata –vakillar palatasi ish qo'zg'atadi, aniq vaziyatni o'rganadi, so'ng kasamyod qabul qilgan sudyalalar sifatida so'z yuritib uning aybdorligi to'g'risida qaror qabul qiladi.

Kongress a'zolari prezident aybdormi yoki aybsizmi-degan savolga ovoz berish yo'li bilan o'z munosabatlarini bildiradi. Agar kuyi palata prezidentning aybdorligi tasdiqlasa, ish Senat tomonidan ko'riladi, unda Oliy sud rahbari raislik qiladi.

“Impichment” moddasini tasdiqlash uchun vakillar palatasining ko'pchilik ovozi kerak. Muhokama to'g'risidagi qaror Senat a'zolarining uchdan ikki qismi ovoz berganidan keyin qabul qilinadi: faqat shundan keyingini prezident o'z lavozimidan ozod qilinadi. Agar Senatda tegishli ovoz yig'ilmasa prezident o'z lavozimida qoladi. Davlat rahbarini javobgarlikka tortishning boshqa variantlari ham bor. Masalan, Fransiyada davlat rahbari sodir etgan qonunbuzarlik parlamentning har ikki palatasida ko'riladi, bu ayblov parlament a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ovozini olish bilan tasdiqlanadi. Shundan keyin ayblilik darajasi Oliy sud tomonidan aniqlanadi.

Boshqa mamlakatlar konstitusiyalarida ham shunday tartib belgilangan. Impichment tartibi yaqinda Braziliyada amalga oshirildi. Prezident Fernando Kollor de Mello 1995 yil qonunbuzarlikka yo'l qo'yganligi natijasida o'z lavozimidan chetlatilgan.

II.bob O'zbekiston Respublikasida davlat boshlig'ining maqomi

2.1 O'zbekiston Respublikasida davlat boshlig'i institutining shakllanishi va rivojlanishi

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimi shakllana boshladi. Prezidentlik boshqaruv uslubi - shu tizimning o'zagi hisoblanadi. O'zbekistonda prezidentlik lavozimining paydo bo'lishi 1985 yil aprelda boshlangan qayta qurish jarayonlari bilan, ayniqsa 1988-1989 yillardayoq avj olib ketgan iqtisodiy va siyosiy islohotlar bilan bog'liq edi.

O'zbekiston Respublikasida prezidentlik lavozimining paydo bo'lishi, ayniqsa uning huquqiy maqomining belgilanishi uch bosqichni o'z ichiga oladi.^{1[44]}

Birinchi bosqich - 1990 yil mart-oktabr oylaridan iborat.

1990 yil 24 martda O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish hamda O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida qonun^{2[45]} qabul qilindi. Unga ko'ra respublikamizda prezident lavozimi ta'sis qilindi. Bunda demokratik jarayonlarni yanada rivojlantirish, siyosiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, konstitutsiyaviy tuzumni, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va xavfsizligini mustahkamlash, respublika davlat hokimiyati va boshqaruvi oliy idoralarining o'zaro aloqasini takomillashtirish maqsad etib qo'yildi. Shu munosabat bilan respublika Konstitutsiyasi Prezident haqidagi yangi 12*-bob bilan to'ldirildi. Undagi konstitutsiyaviy qoidalar bir necha guruhga bo'lindi:

- a) Prezidentni saylash;
- b) Prezidentning vakolatlari;
- c) Prezidentning boshqa idoralar bilan munosabati;
- d) Prezident faoliyatining demokratik qoidalari va h.k.lar.

^{1[44]} O'zbekiston Respublikasi ijroiya hokimiyatining oliy idoralari. //O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat. T., Adolat, 1995, 112-126-betlar

^{2[45]} O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi, 1990, №10-11, 197-m.

Ikkinchi bosqich - 1990 yil 1 noyabrdan yangi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

1990 yil 1 noyabrda O'zbekiston SSRda ijroiya va boshqaruv hokimiyatining tuzilishini takomillashtirish hamda O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida maxsus qonun qabul qilindi. Natijada mavjud prezidentlik hokimiyati bilan Vazirlar Kengashining ijroiya - boshqaruv hokimiyati qo'shib yuborilib, keyingisi Prezident huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga aylantirildi.^{3[46]} Prezident ayni bir vaqtda Vazirlar Mahkamasining Raisi bo'lib qoldi, Prezident va hukumat apparati birlashtirildi. Endilikda Prezident nafaqat davlat boshlig'i sifatida farmonlar, balki hukumat boshlig'i sifatida farmoyish va qarorlar ham qabul qiladigan bo'ldi. Bundan tashqari o'sha vaqtda Vitse-prezident lavozimi ham ta'sis etilgan edi. Lekin o'zini oqlamaganligi sababli 1992 yil 4 yanvardagi qonun bilan tugatilib, O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri lavozimi ta'sis etildi.^{4[47]} U Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qiladi va uning ishini tashkil etadi, deb belgilandi.

Uchinchi bosqich - O'zbekistonning mustaqillik Konstitutsiyasi bilan boshlanadi.

Respublikamizda prezidentlik institutining vujudga kelishi va takomillashuvida 1991 yil 18 noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi qonun^{5[48]} katta ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini O'zbekiston Respublikasi fuqarolari *umumiy, teng* va *to'g'ridan-to'g'ri* saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan amalga oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti *yetti yil muddatga* saylanadi.

O'zbekiston Respublikasining 18 yoshga to'lgan fuqarolari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida qatnashish huquqiga ega.

^{3[46]} O'zbekiston Prezidentning 1990 yil 15 noyabrdagi Farmoni. //Sovet O'zbekistoni, 1990 y., 21 noyabr.

^{4[47]} Xalq so'zi. 1992 yil, 8 yanvar.

^{5[48]} O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992, №1, 34-m.

Ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy ahvoliga, irqiy yoki milliy mansubligiga, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabatiga, mashg'ulot turi va xususiyatiga qarab O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining saylov huquqini biron-bir tarzda bevosita yoki bilvosita cheklash taqiqlanadi.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, sudning hukmiga muvofiq ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida qatnashmaydilar.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari O'zbekiston Respublikasi Prezidentini saylash bo'yicha saylovoldi kompaniyasida va ovoz berishda ixtiyoriy ravishda qatnashadilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'yicha ovoz berish yashirin bo'lib, fuqarolar tomonidan bevosita amalga oshiriladi. Fuqarolarning xohish-iroda bildirishlari ustidan nazorat etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi bitta ovozga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazishni O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi, okrug va uchastka saylov komissiyalari ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazishni saylov komissiyalari ochiq va oshkora amalga oshiradilar.

Saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishga doir barcha tadbirlarda, shuningdek, har bir saylov uchastkasida saylov kuni ovoz berish xonalarida va ovozlarni sanab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlar ko'rsatgan siyosiy partiyalardan, saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan bittadan kuzatuvchi, matbuot, televideniye va radio vakillari, boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar va harakatlardan kuzatuvchilar qatnashish huquqiga egadirlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasining davlat mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarni boshqa mablag'lar hisobidan moliyaviy ta'minlash va o'zga tarzda moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash taqiqlanadi.

Saylovni o`tkazishning qonunda nazarda tutilgan qoidolari hamda tartibini buzuvchi shaxslar, O`zbekiston Respublikasi fuqarosining O`zbekiston Respublikasi Prezidentini saylash va Prezidentlikka saylanish, saylovoldi tashviqoti olib borish huquqlarini erkin ravishda amalga oshirishiga zo`ravonlik, aldash, tahdid qilish yoki boshqa yo`l bilan qarshilik ko`rsatuvchi shaxslar, shuningdek, soxta saylov hujjatlari tuzgan, ovozlarni atayin noto`g`ri sanab chiqqan, ovoz berish yashirinligini buzgan yoki ushbu Qonun boshqacha tarzda buzilishiga yo`l qo`ygan saylov komissiyalarining a'zolari, davlat va jamoat organlarining mansabdor shaxslari qonunda belgilangan yo`sinda javobgar bo`ladilar.

Nomzodlarning sha'ni va qadr-qimmatiga dog` tushiradigan soxta ma'lumotlarni e'lon qilgan yoki boshqa yo`sinda tarqatgan, saylov komissiyalari a'zolariga nisbatan haqoratomuz munosabatga yo`l qo`ygan shaxslar ham javobgarlikka tortiladilar.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy holati – O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIX bobi 89-97-moddalarida ko`rsatib o`tilgan. Unga ko`ra O`zbekiston Respublikasining Prezidenti O`zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig`idir.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o`ttiz besh yoshdan kichik bo`lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O`zbekiston hududida muqim yashayotgan O`zbekiston Respublikasi fuqarosi, saylanishi mumkin. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O`zbekiston Respublikasining Prezidenti bo`lishi mumkin emas.

Prezident o`z vazifasini bajarib turgan davrda boshqa haq to`lanadigan lavozimni egallashi, vakillik organining deputati bo`lishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanishi mumkin emas.

Prezidentning shaxsi daxlsizdir va qonun bilan muhofaza etiladi.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan *O`zbekiston Respublikasining Prezidenti:*

1) fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafilidir;

2) O`zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy-davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko`radi;

3) mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O`zbekiston Respublikasi nomidan ish ko`radi;

4) muzokaralar olib boradi hamda O`zbekiston Respublikasining shartnoma va bitimlarini imzolaydi, respublika tomonidan tuzilgan shartnomalarga, bitimlarga va uning qabul qilingan majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlaydi;

5) o`z huzurida akkreditatsiyadan o`tgan diplomatik hamda boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi;

6) O`zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash uchun nomzodlarni O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

7) O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalar yuzasidan ma'ruzalar taqdim etadi;

8) ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi; respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi; vazirliklar, davlat qo`mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig`iga kiritadi;

9) Senat Raisi lavozimiga saylash uchun nomzodni O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

10) O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko`rib chiqishi va tasdiqlashi uchun O`zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini taqdim etadi;

11) O`zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolarini tasdiqlaydi;

12) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig'iga kiritadi;

13) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga Konstitutsiyaviy sud raisi va sudyalari, Oliy sud raisi va sudyalari, Oliy xo'jalik sudi raisi va sudyalari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisi lavozimlariga nomzodlarni taqdim etadi;

14) viloyat, tumanlararo, tuman, shahar, harbiy va xo'jalik sudlarining sudyalarini tayinlaydi va lavozimlaridan ozod etadi;

15) viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik bu masalalarni tegishli xalq deputatlari Kengashlarining tasdig'iga kiritadi. Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o'z sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o'z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli;

16) respublika davlat boshqaruv organlarining, shuningdek, hokimlarning qabul qilgan hujjatlarini to'xtatadi, bekor qiladi;

17) O'zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi va e'lon qiladi; qonunga o'z e'tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli;

18) O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qiladi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tasdig'iga kiritadi;

19) favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz bergan taqdirda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashni ko'zlab, O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi. Favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi qonun bilan belgilanadi;

20) O`zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo`mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning oliy qo`mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlar beradi;

21) O`zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari va yorlig`i bilan mukofotlaydi, O`zbekiston Respublikasining malakaviy va faxriy unvonlarini beradi;

22) O`zbekiston Respublikasining fuqaroligiga va siyosiy boshpana berishga oid masalalarni hal etadi;

23) amnistiya to`g`risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnoma kiritadi va O`zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni avf etadi;

24) O`zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatini tuzadi. Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik shu masalalarga doir farmonlarni O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig`iga kiritadi;

25) ushbu Konstitutsiya va O`zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Prezident o`z vakolatlarini bajarishni davlat idoralariga yoki mansabdor shaxslarga topshirishga haqli emas.

O`zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo`lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Qonunchilik palatasi yoki Senat tarkibida ularning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo`lmaydigan ixtiloflar yuz berganda yohud ular bir necha marta O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda, shuningdek, Qonunchilik palatasi bilan Senat o`rtasida O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo`lmaydigan ixtiloflar yuz berganda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi bilan bamaslahat qabul qilgan qarori asosida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilgan taqdirda yangi saylov uch oy mobaynida o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati favqulodda holat joriy etilgan davrda tarqatib yuborilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti betoblighi sababli o'z vazifasini bajara olmasligi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari qo'shma qaroriga ko'ra tuzilgan davlat tibbiy komissiyasi xulosasi bilan tasdiqlangan taqdirda o'n kun muddat ichida palatalarning qo'shma favqulodda yig'ilishida deputatlar, senatorlar orasidan uch oygacha bo'lgan muddatga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini vaqtincha bajaruvchi saylanadi. Bu holda uch oy muddat ichida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumxalq saylovi o'tkazilishi shart.

Vakolati tugashi munosabati bilan iste'foga chiqqan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti umrbod Senat a'zosi lavozimini egallaydi.

O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 25 aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to'g'risida"gi qonuni^{6[49]}ga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z vakolatlarini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq samarali amalga oshirishi uchun zarur sharoitlar yaratish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan, shuningdek konstitutsiyaviy vakolat muddati tugab yoki sog'lig'i holatiga ko'ra iste'foga chiqqan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga zarur sharoitlar va kafolatlar yaratib beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti daxlsizlik va immunitetga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining daxlsizligi uning turar joy va xizmat xonalariga, bagajiga, shaxsiy va xizmat transport vositalariga, yozishmalariga,

^{6[49]} O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003 y., 3-4-son.

foydalanadigan aloqa vositalariga, shuningdek unga tegishli hujjatlarga tatbiq etiladi.

2.2. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti nazorati

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan kelib chiqadigan bo`lsak, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti – davlat boshqaruvi sohasida nazoratni amalga oshirish bo`yicha keng vakolatlarga egadir. Jumladan, Konstitutsiyaning 93-moddasiga binoan *O`zbekiston Respublikasi Prezidenti*: fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafilidir; ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi; respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi; vazirliklar, davlat qo`mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi; respublika davlat boshqaruv organlarining, shuningdek, hokimlarning qabul qilgan hujjatlarini to`xtatadi, bekor qiladi va h.k.lar.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 16 fevraldagi “Respublika davlat nazorati tizimini takomillashtirishga oid ba'zi tadbirlar to`g`risida”gi farmoniga binoan, davlat nazorati tizimini yanada takomillashtirish, uni bozor munosabatlari talablariga muvofik holga keltirish, nazorat qiluvchi organlar ishidagi parallelizm bartaraf etish maqsadida va O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 93-moddasiga muvofiq – O`zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Davlat nazorati ko`mitasi va uning joylardagi organlari tugatildi, *O`zbekiston Respublikasi Prezidentining devonida Nazorat inspeksiyasi* va tegishli ravishda Qoraqalpog`iston Respublikasi Jo`qorg`i Kengesi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimliklarining apparatlari tarkiblarida *nazorat inspeksiyalari* tashkil qilindi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 17 fevraldagi Farmoniga binoan esa, ijro intizomini mustahkamlash va O`zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va farmoyishlarini, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarini bajarish maqsadida – O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida nazorat bo`yicha *muvofiglashtiruvchi Kengash* tashkil etildi.

Ushbu Kengash – har chorakda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmonlar va farmoyishlarning hamda Hukumatning muhim qarorlari bajarilishini ko`rib chiqadilar; chorak yakunlari bo`yicha davlat boshqaruvi organlaridagi ijro intizomi haqida maxsus ma'lumotnomalar tayyorlaydi. Ma'lumotnomalar, tegishli qarorlar qabul qilish maqsadida, O`zbekiston Respublikasi Prezidentiga taqdim etiladi.

Mazkur Farmon bilan muvofiqlashtiruvchi Kengashning – Hukumat a'zolari, Markaziy bank Raisi, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilari rahbarlik qiladigan respublika komissiyalari va kengashlari faoliyatiga alohida e'tibor qaratishlari lozimligi, belgilab qo'yildi.

Muvofiqlashtiruvchi Kengashning ishchi organi sifatida - O`zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni Nazorat inspeksiyasi belgilandi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni Nazorat inspeksiyasi va joylardagi nazorat inspeksiyalar *faoliyatining asosiy vazifasi* sifatida quyidagilar belgilandi:

- a) O`zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, farmoyishlari va Hukumat qarorlari ijrosi ustidan ta'sirchan nazoratni tashkil etish;
- b) nazorat organlarining ishidagi parallelizm va takrorlashni bartaraf qilish;
- c) respublikada bozor munosabatlari vositalarini ro'yobga chikarishga va iktisodiy islohotlarni yanada chukurlashtirishga karatilgan takliflarni tayyorlash.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 noyabrdagi “Viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklari huzuridagi nazorat inspeksiyalari tuzilmasini tartibga solish to`g`risida”gi qaroriga binoan, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklari huzuridagi nazorat inspeksiyalarining faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida 2001 yil 1 yanvardan boshlab viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimlarining o`rinbosarlari – nazorat inspeksiyalarining rahbarlari lavozimlari tugatildi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati qarorlarining bajarilishini nazorat qilish, tegishli hududlarda nazorat qiluvchi organlar faoliyatini

muvofiglashtirish, shuningdek, ijro intizomini takomillashtirish masalalari viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari zimmasiga yuklandi.

Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlarining bajarilishini *nazorat qilish bo`yicha bo`limlari* tashkil etildi va ular bevosita viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga bo`ysindirildi.

*Nazorat bo`limlariga* – O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlarining bajarilishini nazorat qilish, shuningdek, nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiglashtiruvchi hududiy komissiyalar bilan birigalikda korxonalarning moliya-xo`jalik faoliyatini o`rganish bo`yicha o`tkazilayotgan tekshirishlarni tartibga solish masalalari yuzasidan takliflar tayyorlash funksiyalari yuklandi.

III. Bob Prezidentning saylash usullari va lavozimidan chetlatish

3.1. Prezidentlik saylovining asosiy tizimlari: to'g'ridan to'g'ri (Fransiya), egri saylovlar (SShA), maxsus organ tomonidan saylanish (GFR, Hindiston), parlament tomonidan (Gresiya).

Ko'pgina manbalarda ta'kidlanganidek, respublika prezidentining monarxdan eng asosiy belgi va farqi shundaki, prezidentlik saylanadigan lavozim hisoblanadi. Respublikada davlat rahbari bo'lib rasman va yuridik jihatdan belgilangan barcha senzlarga muvofiq keladigan har bir fuqaro saylanishi mumkin, monarhiyadan farqli ravishda prezident muayyan muddatga saylanadi, bu lavozimni egallash vaqtinchalik xarakterga ega.

Respublikaning uchta asosiy modeli mavjud: predengtlik respublikasi, parlament respublikasi aralash respublika. Bu respublikalarning nomi davlat rahbari lavozimi bilan bekorga bog'langan emas. Respublika shuning uchun ham prezidentlik deyiladiki, unda davlat rahbarining alohida maqomi-prezidentlik mustahkamlab qo'yilgan.

Darhaqiqat, prezidentlik respublikasida davlat rahbari davlat boshqaruv ishlarida muhim rol o'ynaydi. Prezident ijro hokimiyatini boshqaradi, davlat rahbarligi bilan hukumat rahbarligi bir shaxs timsolida qo'shib olib boriladi. Prezidentlik respublikalari AQSh, Meksika, Venesuela, Misr va boshqa mamlakatlarda haqiqiy vaziyat ana shunday.

Boshqaruvning aralash shakli bo'lgan mamlakatlarda ham (Fransiya, Portugaliya, Polsha va boshqalar) prezident muhim rol o'ynaydi. Prezidentlik va araash respublikalarda davlat rahbari asosiy iqtisodiy ustivorlik va yo'nalishlarni tanlashda, xalqaro muammolar va ittifoq tuzish bo'yicha mamlakatning siyosiy rahbari sifatida juda katta vakolatlarga ega. Prezident haqiqiy ijro hokimiyatiga egalik qiladi, ayni chog'da armiyaga rahbarlik qilish, tartibni saqlovchi kuchlar va boshqa turli fuqarolik xizmati ya'ni minglab davlat xizmatchilari bilan ishlashda muhim vakolatlarga ega.

Davlat rahbarligi va ijro hokimiyati rahbarligi vazifalarni bir odam qo'lida to'planishi prinsipiga turlicha baho berish mumkin, ammo ko'pchilik mamlakatlarida uni risoladagidek holat deb e'tirof etishadi. Bundan tashqari, ba'zi bir davlatshunoslar hisoblaganidek, prezidentlik lavozimi ijro hokimiyati bilan qo'shib olib borilganidagina ancha maqsadga muvofiq bo'ladi.

Parlamentar respublika prezidenti, yuqoridagi holatdan farqli ravishda iqtisodiyot, ichki va tashqi siyosat sohasida biron-bir haqiqiy hokimiyatga ega emas.

Parlamentar respublikada prezidentning roli ni parlamenta monarxiyadagi monarxning roli bilan qiyos qilish mumkin. Har ikki holatda ham davlat boshlig'i amalda davlatni boshqarmaydi. Bunday holatda ularning davlat ishlariga rahbarligi, nisbiy, ammo, bari-bir, ikkinchi rejali ishlarni bajarsada davlat ramzi hisoblanadi. Ba'zan holatlarda bunday "zaif" parlamentar respublika prezidentlik mamlakatidagi vaziyatga, davlat ishlari oqimiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Odatda bunday holatlar favqulotda hodisalar-parlament bo'hroni, tabiiy halokatlar kelib chiqqanida kuzatiladi.

Parlamentar respublikasida prezident hukumatda ko'pchilikni tashkil etgan partiyaga mansub bo'lsa, siyosiy jarayonning borishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Vaholanki, ba'zi bir mamlakatlar qonunchiligida prezident lavozimini egallaganlarga rasman siyosiy partiya sifidan chiqib ketishi ta'lab etiladi.

Shu o'rinda muhim bir jihatni e'tiborda tutish kerak. Parlamentar respublikada prezidentning rasmiy huquqi, ya'ni konstitusiyada yozilgan huquqi va vakolati prezidentlik respublikasining "kuchli" prezidenti vakolatlaridan katta farq qilmaydi. Parlamentar respublika prezidentiga konstitusiya bo'yicha katta vakolatlar yuklangan bo'lsa ham amalda bu vakolatlar ijro hokimiyat: bosh vazir va hukumat qo'lida bo'ladi;

Masalan, agar parlamentar respublika prezidenti o'z nomidan biror akt qabul qiladigan bo'lsa, bunda ushbu aktlar konstrassignasiyadan o'tishi, ya'ni ijro hokimiyati rahbarining imzosi tasdiqlanishi talab etiladi. Prezident imzosi yonida

bosh vazir, yoki prezident akti bilan tartibga solinadigan mazkur sohaga javob beradigan vazirning imzosi turishi kerak.

Vazirning (bosh vazirning) imzosisiz prezident buyrugi qonuniy kuchga ega emas.

Italiyada (parlamentar respublika) prezident rasman oliy bosh qo'mondon hisoblanadi. Konstitutsiya bo'yicha u parlamentni tarqatib yuborishi mumkin; parlament fraksiyasi rahbarlari bilan maslahatlashib bosh vazir Amalda esa haqiqiy bosh qo'mondon bosh vazir, favqulodda hodisa yuz bersa parlament bosh vazir tashabbusi bilan tarqatilish mumkin, prezident esa parlamentni tarqatish to'g'risidagi tayyor hujjatga qo'l qo'yadi. Prezident faqat parlament ishonchini qozongan shaxsni ijro hokimiyati rahbari qilib tayinlashi mumkin, chunki yuqorida ta'kidlanganidek, ishonchsizlik bildirish instituti prezidentni har qanday tashabbusini yo'qqa chiqarishi mumkin. Shuning uchun ham bu prezident ijro hokimiyat tomonidan tayyorlangan hujjatlarga (shu jumladan hukumatini tayinlash va bo'shatish) imzo qo'yish bilan kifoyalanadi.

Prezidentni saylash mexanizmi oxir-oqibat uning mamlakat hayotidagi o'rni va rolini belgilab beradi.

Prezidentlik respublikasida va aralash boshqaruv shaklidagi respublikada amalda prezident to'g'ridan to'g'ri xalq tomonidan saylanadi. Bunday saylov Lotin Amerikasining ko'pchilik mamlakatlari[^]: Meksika, Chili, Peru, Kolumbiya, Kosta-Rikada; Osiyo mamlakatlaridan: Filipinn, Misr; Yevropa mamlakatlaridan Fransiyada amalga oshiriladi. Bunda prezident hokimiyatni boshqarish huquqini beradigan vakolotlarni xalq tomonidan olgan hisoblanadi. Shuning uchun ham uning vakolat darajasi ancha salmoqlidir.

Ba'zi bir mamlakatlarda prezidentga juda katta vakolat berish xatarli ekanligini hisobga olib, uni saylash tartibi parlament vositasida amalga oshirish joriy qilinadi. Bunday xatarga asos bor, chunki bevosita parlamentga bog'liq bo'lmagan va o'zini qonun chiqaruvchi organga qarama-qarshi qo'yishi mumkin bo'lgan prezident, ba'zan parlament ustidan xukmronlik o'rnatishga va hokimiyat muvozanatini o'z tomoniga o'zgartirishga xarakat qiladi, buning oqibatida davlat

mexanizmi me'yorida ishlashi uchun zarur bo'lgan hokimyatlar o'rtasidagi muvozanat buzilishi ro'y berishi mumkin. Bunday holatda boshqaruvning demokratik shakli avtoritar hokimyat tartibi bilan almashinadi.

Prezidentlik respublikasida bilvosita saylovlar (AQSh, Argentina) qo'llaniladi. Bunday holatlarda saylovchilar hayyo'ati saylanadi, keyin ikkinchi turda saylovchilar nomidan prezident saylanishi mustahkamlangan. Aytish kerakki, konstitusiyalarda mustahkamlangan bilvosita saylov tizimiga qaramay AQShda to'g'ridan-to'g'ri saylovlar mavjud. Saylangan AQSh prezidenti familiyasi birinchi turning o'zida, ya'ni ovoz berish natijalaridan keyin, kun oxirida saylovchilar o'z hohish-irodalarini ifodalaganidan so'ng ma'lum bo'ladi.

Prezident to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita saylanadigan barcha mamlakatlarda u haqiqatda keng hokimyat egasi bo'ladi. Ular jumlasiga yuqorida tilga olingan mamlakatlar (Fransiya va AQSh)gina emas, balki Avstriya, Irlandiya, Islandiya, Afrikadagi mamlakatlar (Kamerun, Senegal) ham kiradi. Bu mamlakatlarda prezidentlik mandati fuqarolardan olinadi.

Bilvosita tartibda saylangan prezident o'z faoliyatini parlamentdan deyarli mustaqil amalga oshiradi. Chunki uni to'g'ridan to'g'ri xalq saylagan. Bunday saylov turi parlament ishtirokisiz davlat rahbarini saylash deb aytiladi.

Parlamentar respublikalarda qoidaga ko'ra prezident ko'p bosqichli saylov usuli asosida saylanadi. Bu ko'pincha ikki bosqichli, ba'zan uch bosqichli tartibda utkaziladi.

Parlamentar respublikada prezidentlik saylovining uch varianti mavjud.

1. 1. Prezident faqat parlament tomonidan saylanadi, bu tartibdagi saylovda boshqa biror mansabdor shaxs va hokimyat vakillari qatnashmaydi. Turkiya va Isroil mamlakatida prezident saylov tizimi shunday.

2. 2. Parlament deputatlari va o'zini o'zi boshqarish organlari vakillari tarkibidan prezident saylash uchun maxsus saylov hay'ati tuziladi. Ular turli darajadagi hokimyat vakillaridir. Bunga Italiyadagi saylov tizimi misol bo'la oladi. Italiya Respublikasi prezidenti har ikki palataning qo'shma majlisida saylanadi. Parlament a'zolariga viloyatdagi vakillar kelib qo'shiladi (har bir

viloyatdan 3 tadan vakil, eng kichik viloyat-Vale d'Aostadan bir vakil qatnashadi). Amalda davlat rahbari har ikki palata a'zolari tomonidan saylanadi, chunki viloyatlardan kelgan vakillar faqat 58 kishini, parlament a'zolari 935 nafarni tashkil etadi.

Hamma hollarda ham prezident saylovida faqat Oliy hokimiyat vakillari emas, balki mintaqa vakillari ham faol ishtirok etadi. Mintaqa vakillarining saylovda ishtiroki prezidentning parlamentga to'liq qaram bo'lmasligi uchun uyushtirilgan bo'lishi ham mumkin. Italiya prezidenti lavozimiga nomzodlar 50 yoshdan kam bo'lmasligi kerak degan talab o'rnatilgani bejiz emas, bu kamolga erishgan yetuk yosh hisoblanadi.

3. 3. Bu variant federativ davlatlarga tegishli. Ba'zi bir federativ davlatlarda prezident saylash uchun alohida hay'at shakllantiriladi, ular federal parlament deputatlari va federasiya subyektlari vakillaridan tashkil topadi. Bu yerda italiyaliklar modeli bilan muayyan o'xshashliklar bor, ammo Italiyadagi prezident saylovida huquqiy birliklardan vakillar ishtirok etadi, mazkur holatda esa davlat tuzilmasi-federasiya subyektlari qatnashadi. Germaniya Federativ Respublikasi bunga misol bo'la oladi, bu yerda prezident Bundestag a'zolari (parlament quyi palatasi) va proporsional vakillik prinsipi bo'yicha federasiya su'bektlarining qonun chiqaruvchi organlari tomonidan (landtaglar) saylangan vakillardan iborat federal majlis tomonidan saylanadi.

Prezidentni saylash uchun Federal majlis a'zolarining mutloq ko'pchiligining ovozi talab etildi.

Hindistonda ham shunga o'xshash holatni kuzatish mumkin. Bu yerda prezident parlamentning har ikki palatasi a'zolaridan (ularda "federal" so'zi ishlatilmaydi) saylangan va shtatlarning qonun chiqaruvchi majlis a'zolaridan saylangan vakillardan iborat alohida saylov hay'ati tomonidan saylanadi.

Hamma holatda ham prezident saylovi parlament tomonidan amalga oshiriladi. Adabiyotlarda ta'kidlanishicha, agar davlat rahbari mandatni parlamentdan oladigan bo'lsa-bu ikkilamchi, yasama hokimiyat egasidir. U bevosita xalq tomonidan saylangan emas, shuning uchun parlamentga hisobdor.

Shunday qilib parlament tomonidan saylangan prezidentning davlat boshlig'i tomonidan saylanadigan prezidentlik va aralash respublikadagi kabi davlat hayotida ishtiroki ham tabiiy yuqori darajada faol bo'lmaydi.

Shu munosabat bilan tadqiqotchilar ta'kidlaydilarki, saylovning parlamentar tizimi davlat boshlig'i tomonidan hokimiyatni zo'rlik bilan bosib olish va hokimiyat vakolatini suiste'mol qilishning birmuncha oldini oladi.

A.A.Mishining ko'rsatishicha, prezident parlament tomonidan saylanganda davlat rahbarini saylash tizimi ancha demokratik hisoblanadi. Eng muhimi, prezidentni saylash usulida emas, hokimiyatining real bo'linishi va "tutib turish va posangi bo'lish" tizimidadir. Bu davlat rahbari tomonidan boshqalar vakolatini egallab olinishiga yo'l qo'ymaydi. Hamma holatda ham, hattoki o'z prezident vakolatini xalqdan olsa ham "tutib turish va muvozanatda bo'lish" tizimi yaxshi ishlab chiqilgan bo'lib, hokimiyatni zo'rlik bilan egallab olinishiga yo'l qo'ylmaydi. Bulardan tashqari, barqaror demokratik an'analar, siyosiy elitaning mavjudligi, yuqori madaniyat, mamlakat fuqarolarining menitaliteti Amerika Prezidentini qonundan chetga chiqishidan saqlab turadi.

Agar muddatdan oldin prezident vafot etsa, iste'fo bersa, yoki impichment tartibida hokimiyatdan chetlashtirilsa, bo'sh qolgan o'rniga nomzod to'g'risidagi masala turli usullar bilan yechiladi. Ba'zi mamlakatlarda vise - prezident uning o'rnini egallaydi. (masalan, AQShda shunday tartib bor) va muddatidan oldin prezidentlik saylovi o'tkazilmaydi. Parlamentar respublikada prezidentlik o'rnini bo'sh qolganda muddatidan oldin saylov o'tkaziladi. O'rnini bo'sh qolgan lavozim yangi prezident ishga tushguncha boshqa lavozimli shaxs tomonidan boshqarib turiladi. Masalan, davlat rahbari vazifasini parlament yuqori palatasining raisi (Fransiyada va Italiyada Senat raisi, GFRda esa Bundestag boshlig'i) bajarib turadi. Ba'zi mamlakatlarda bunday funksiyani hukumat rahbari (masalan, Finlandiya va Avstriyada bosh vazir) bajarib turadi.

Biz Italiyada prezidentlikka nomzodning yoshi to'g'risida to'xtalib o'tgan edik. Ko'pchilik mamlakatlarda nisbatan yoshlar ham prezidentlikka o'z nomzodi qo'yishlari mumkin. Masalan, GFRda yosh senzi, 40 yoshdan, AQSh va

Xindistonda 35 yoshdan kam bo'lmashligi kerak. Hamma hollarda ham ular katta turmush tajribasiga ega bo'lishlari kerak. Musulmon mamlakatlarida prezident musulmon diniga mansub bo'lishi talab etiladi. Ba'zi mamlakatlarda prezidentni qayta saylashga yo'l qo'yilmaydi. Masalan, Meksika prezidenti faqat bir marta saylanadi. Boshqa mamlakatlarda surunkasiga ikki muddat saylanishiga yo'l qo'yiladi. Masalan, AQShda prezident surunkasiga ikki marta saylanishi mumkin. (to'rt yildan ikki marta, jami 8 yil) GFR prezidenti 5 yilga saylanadi va bir martagina qayta saylanishi mumkin. Italiya va Fransiya ham ancha erkin qoida amal qiladi: qayta saylash cheklanmagan. Fikrimizcha, qayta saylashning muayyan chegarasi bo'lgani ma'qul. Barqaror demokratik an'analarga ega bo'lmagan mamlakatlarda qayta saylashda cheklov bo'lmaganligi sababli, bir odam o'n yillab bu lavozimni egallab kelmoqda. Ba'zan soxta saylovlar o'tkaziladi, bu aynan maynabozchilikdan boshqa narsa emas. Bunday holatlarni Afrikaning Malavi, Liberiya va boshqa mamlakatlarda kuzatish mumkin. Zoirning prezidenti Mobutu Sese Seko 32 yil davlatni boshqardi. 1979 yilda Tunis prezidenti Burgib umrbod prezident deb e'lon qilindi. Boshqa mamlakatlarda ham ba'zi shaxslar umrbod prezident maqomini olganlar. Gaitida diktator Dyuvallye umrbod prezident hisoblangan. Shuning uchun bu lavozimni egallash muddatiga oqilona kiritilgan bunday cheklov biror shaxs tomonidan hokimiyatni suiste'mol qilishga to'siq bo'lib xizmat qiladi. .

Prezidentlik saylovi boshlandi Hyelsinki, 31 yanvar TASS habar qiladi. "Bugun Finlandiya prezidentlik saylovi o'tkaziladi. Respublikaning yuqori davlat lavozimiga 5 nomzod Koyvisito, bosh vazir X.Xolkeri, "Sentr" partiyasining raisi P.Vyayuryunen, Keski-Suomi guberniyasining gubernatori K.Kivisito va Finlandiya kompartiyasining Bosh sekretari ("Birlik") Y.Kayanoya qisman o'zlashtirish kiritilishi munosabati kiritilgan yangi qoida tasdiqlanishi bilan bog'liq, Har bir saydlovchiga u yoki bu nomzodga ovoz berish uchun ikkitadan byulleten beriladi. Ikkinchisi saylovchilarni aniqlash uchun beriladi. Izvestiya. 1998 yil. 1 fevral.

Davlat boshligining davlatning oliy organlarini shakllantirish borasidagi vakolatlari. Davlat boshligi ijro etuvchi xokimiyatning eng ta'sirchan organi bulmish xukumatni uzi (prezidentlik respublikalarida, mutlak yoki dualistik monarxiya davlatlarida) yoki parlamentdagi kupchilik urinni egallagan partiya yoxud koalisiya lideri takdimiga binoan shakllantiradi. Ba'zi davlatlarida davlat raxbari bosh vazirni (Ukraina) yoki vazirlarni (AIII11) tayinlashda parlament roziligini olishi lozim. Davlat boshligi, aksariyat mamlakatlarda, davlatning barcha oliy mansabdorlarini tayinlash faoliyatida ishtirok etadi, u davlat xrkimiyat organlari faoliyatini muvofiklashtirib boradi.

Davlat boshligining xukuk ijodkorligi soxasidagi vakolatlari. Davlat boshligi uz faoliyati davrida mamlakat mikiyosida umummajburiy bulgan normativ xukukiy xujjatlar (karorlar, farmonlar, farmoyishlar, dekretlar va xokazo) kabul kiladi. U ijro etuvchi xrkimiyatning muayyan xukukiy aktlarini bekor kilishi yoki ijrosini tuxtatib kuyish xukukiga xam ega. Davlat boshligining krnun kuchiga ega bulgan aktlari odatda shu soxada konun kabul kilingunga kadar amalda buladi, bunday normativ xukukiy xujjatlar jamiyatda vujudga kelgan va tartibga solinishi extiyoji tugilgan yangi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish yuzasidan vaktinchalik chora-tadbir sifatida namoyon buladi. Mazkur xukukiy aktlar.reglamentar xokimiyat asosida xam kabul kilinishi mumkin. Parlamentar boshkaruvda bulgan mamlakatlarda davlat boshligining aktlari kontrassignaturaga muxtojdir. K^oida tarikasida, davlat boshligining aktlari konunosti xarakterga ega bulib, amaliyotda ba'zan konun darajasiga, xatto undan ustun mavkega xam ega bulishi mumkin.

Davlat boshligining favkulodda vaziyatlarni tartibga solish yuzasidan vakolatlari. Davlat boshligi muayyan mamlakatdagi konunchilik asosida belgilangan davrga mamlakatning butun xududida yoki uning aloxida kismida favkulodda, xarbiy yoki kamal xrlati e'lon kilishi mumkin. Mazkur masala xakidagi karordan parlament darxol xabardor etiladi. Federativ respublikalarda davlat boshligining federasiya subyektlarida prezidentlik boshkaruvini joriy

kilishi va federel intervensiya (bevosita aralashuv)ni amalga oshirish xukukiy xam mavjud.

Davlat boshligining kurolli kuchlarni idorasi borasidagi vakolatlari. Davlat boshligi aksariyat mamlakatlar konstitusiyalariga kura, davlatdagi oliy bosh kumondon xisoblanadi. U armiyaning oliy kumondonlik tarkibini tayinlaydi, oliy xarbiy unvonlar beradi, davlat xavfsizligiga mas'ul buladi va boshkalar. Odatda, davlat boshligi xuzurida maxsus organ -davlat xavfsizligi kengashi tashkil etilib, u davlat raxbari oldida xisobdor buladi.

Davlat boshligi mamlakatdagi eng oliy mansabdor sifatida davlat xokimiyati organlarining muayyan makomdagi xizmatchilarini tayinlaydi. Odatda, davlat xizmatchilari belgilangan makrmlarga ega buladilar va ular uz darajalariga muvofik tegishli mansabdorlar tomonidan tayinlanadi. Ba'zi xrlatlarda davlat boshligi parlamentga muayyan davlat organlari mansabdorligiga nomzodlarni tasdiklash uchun takdim etishi mumkin. Dunyoning bir kator mamlakatlarida davlat boshligining sudyalarni tayinlash borasidagi amaliyoti xam kuzatiladi.

Davlat boshligining shaxe makrmi soxasidagi vakolatlari. Davlat boshligi shaxslarni mazkur mamlakat fukaroligiga kabul kilish yoki undan chikishiga ruxsat berishi, jazoni yengillashtirishi, avf etishi yoki amnistiya e'lon kilishi mumkin. U ordenlar va medallar bilan takdirlashi, muayyan shaxslarga unvonlar berishi xamda konunchilik bilan belgilangan doiradagi boshka vakolatlarni amalga oshiradi.

Ijro etuvchi xokimiyatning eng ta'sirchan apparati bulmish xukumatning funksiyalari davlat va jamiyat miyosida juda muxim urin tutadi. Xukumat - konun osti organdir⁶. U konunchilik asosida konstitusiya, konunlar, davlatning oliy vakillik organi xamda davlat boshligining xukukiy aktlarining ijrosi yuzasidan deyarli barcha masalalarni xal kilish borasida faoliyat yuritadi.

Xukumat uz vakolatlari doirasida konunlar ijrosini tashkillashtiradi, ijro etuvchi xokimiyatning kuyi organlar faoliyatini muvofiklashtiradi va nazorat kiladi. Uning kollegial organ sifatidagi siyosiy masalalarni va umumiy boshkaruv muammolarini xal kilish borasidagi vakolatlari doirasi kup jixatdan mamlakatning

boshkaruv shakli, siyosiy rejimning xarakteri, siyosiy kuchlarning mutanosibligi va tarixiy an'ana xamda odatlarga boglikdir.

Kollegial xarakterda bulgan xukumatning ish shakli asosan uning a'zolarini xukumat raxbari (davlat boshligi yoki bosh vazir) boshchiligida amalga oshiriladigan majlislar sifatida namoyon buladi. Bunday majlislarda xukumat karorlari kabul kilinadi, faoliyatning ustivor yunalishlari belgilanadi, shuningdek faoliyatlar yuzasidan xisobotlar tinglanadi. Aksariyat mamlakatlarda, xukumat a'zolarining barchasi jalb kilinmagan xolda muayyan soxa raxbarlari (vazirlar) bilan ijro etuvchi xokimiyatning boshligi urtasida xal kilinishi lozim bulgan masalalar yuzasidan majlislar utkazilishi mumkin. Masalan, AKD1 da bunday majlislarda kabinegning aloxida a'zolari bilan bir katorda prezident ijroiya apparatining raxbarlari, davlat apparatining muxim tarmok mansabdorlari xam katanashishi mumkin. Mazkur majlislarda yakuniy karorni prezident kabul kiladi.

Parlamentar monarxiya va parlamenter respublikalarda xukumat ishidagi kollegiallik axamiyati koalision xukumat faoliyatida uga yukori, bir partiyali xukumatlarda esa past buladi. Kupchilik mamlakatlarda xukumat majlislari odatda xar xaftada utkazilishi umume'tirof etilgan. Kun tartibiga kuyiladigan va ustivor bulgan masalalar kulami ijro etuvchi xokimiyat raxbari tomonidan belgilanadi. Muxokama kilinadigan masalalar ijroiya xokimiyat boshligining apparati yoki manfaatdor tarmok vaziri tomonidan tayyorlanadi. Agar masala bir necha tarmok vazirliklari vakolatlari doirasiga taalukli bulsa, xal kilish yuzasidan doimiy yoki vaktinchalik asoslarda faoliyat yuritadigan tarmoklararo kengashlar yoki kumitalar tashkil etiladi.

Majlislarda, shuningdek tashki va ichki siyosatning turli aspektlari yuzasidan axborotlar tinglanadi. Odatda, majlis bayonnomalari maxsus mansabdor (Fransiyada -xukumatning bosh kotibi, Buyuk Britaniyada - kabinet kotibi) tomonidan yuritiladi va ular makfiy xisblanib, nashr kilinmaydi. Kdrorlar xukumat nomidan e'lon kilinsada, lekin karor kabul kilinishidagi asosiy urinni xukumat raxbari (davlat boshligi yoki bosh vazir) egallaydi.

Kupchilik malakatlarda bir kdtor muxim masalalar xukumat a'zolarining barchasi ishtirok etadigan majlislarda emas, balki xajm jixdtdan kichik bulgan yiginlarda davlatning markaziy organ raxbarlari ishtirokida xal kilinadi. Msalan, Buyuk Yuritaniyada bosh vazir, davlat xdzinasi kansleri, tashki ishlar va mudofaa vazirlari, shuningdek yana bir necha muxim mansab egalari ishtirok etadigan "ichki kabinet" amal kiladi.

Ayni paytda jaxonda ijro etuvchi xokimiyat tarkibida kumita va komissiyalar tashkil kilinishi tendensiyalari kuchaymokda. Mazkur idoralar doimiy yoki vaktinchalik asoslarda faoliyat yuritib, ularning soni va faoliyat yunalishlari turli davlatlarda turlicha (masalan, GFRda bunday kumitalar soni untadan ortik). Ularning vakolat doirasi xam juda keng bulib, xususan, GFR Federal X,vfsizlik kengashi, reglamentga kura, konun bilan biron bir idora vakolat doirasiga kiritilmagan xar kanday masalani xal kilish xukukiga ega, Fransiyada xam shunday xususiyatlarga ega bulgan, bosh vazir raxbarlik kiladigan ichki xavfsizlik qo'mitasi faol amal kiladi.

Qator mamlakatlarda muayyan ijtimoiy soxalarda xukumat funksiyalarini kabul kilib oladigan favkulodda kumitalarni tashkil kilish xolatlari nazarda tutilgan. Masalan, 1982 yildagi Argentina bilan kurolli tuknashuvga olib kelgan Folklend inkirozi davrida Buyuk Britaniyada uzida bosh vazir, mudofaa vaziri, konservativ partiya lideri, tashki ishlar vaziri, mudofaa shtabi raxbari va Umumpalata liderini birlashtirgan xarbiy kabinet tashkil kilingan edi. Mazkur kabinet "Xarbiy va tashki siyosat Qo'mitasi" (Janubiy Atlantika) deb nomlanib, uning ixtiyorida urush olib borish bilan boglik barcha masalalarni xal kilish vakolatlari mavjud edi.

Xukumat karorlarini kabul kilinishida tor doiradagi shaxslarning ishtiroki, kuruladigan masalalar doirasi va karorlar kabul kilinishi jarayonining maxfiyligi kupincha demokratik prinsiplarga xamda kadriyatlarga zid bulib, xukukni ximoya kiluvchi xalkaro tashkilotlar noroziligiga sabab bulmovda. Bu norozilik yurisdiksiyasi Yevropaning kiok davlatida amalda bulgan inson xukuklari buyicha Yevropa Sudi amaliyotida kuzatilmokda.

3.2. Xorijiy mamlakatlarda ijro etuvchi xokimiyat egasi sifatida davlat boshligining ushbu mansabni egallash tartibi.

Xokimiyatning "klassik" tarmoklari - parlament, xukumat, sud (konunchilik, ijro va sud x,okimyati)dan farkli ravishda davlat raxbarining amaliy va yuridik xolatini bir xilda baxolash mumkin emas. Bu juda murakkab masala: davlag raxbari kim, uning yuridik va amaliy makrmi kanday? U kim - konun chikaruvchimi, ijro xokimyatining raxbarimi yoki ularning allakanday urtanchasimi? Davlat mexanizmida davlat raxbari kanday urin tutadi, bunga bir krlipdagi va universal javob yuk. Gap shundaki, xar bir mamalakatda bu mansab egasining tutgan urni uziga xos. Ammo shunga karamay ularning davlat raxbari institutini ta'rifini ifoda etuvchi umumiy belgilari, uziga anik tomonlarini aloxida kursatish mumkin.

Davlat boshligi - davlat organlari tizimida oliy lavozimni egallagan, mamlakat ichkarisida va tashkarisida uning oliy vakili, millat va davlat birligining

ifodasi, xalkning davlatchilik ramzi bulgan lavozim egasi yoki organdir. Dunyoning turli davlatlari konstitusiyalariga muvofik, davlat boshligiga ba'zilar xam konun chikaruvchi, xam ijro etuvchi xokimiyatning ajralmas kismi sifatida karaladi (Xindiston, Buyuk Britaniya) Bunga sabab, mazkur mamlakatlar konstitusiyalariga va odat normalariga muvofik, parlamentning konunchilik aktlari davlat boshligining imzosisiz amal kilmasligi, shuningdek davlat boshligiga ijro etuvchi xokimiyatni yunaltirib turish «ishonib topshirilgan»ligidir. Ba'zi mamlakatlarda davlat raxbariga xam ijro etuvchi xokimiyat raxbari, xam davlat boshligi sifatida karaladi (AKD1, Misr). Ayrim mamlakatlarda davlat boshligi xech kaday davlat xokimiyati tarkibiga kiritilmaydi (Germaniya, Italiya), unga davlat xokimiyatining barcha tarmoklari ustidan oliy xakamlik instituti sifatida karaydilar Davlat boshligi Yaponiyadagi kabi davlatchilik ramzi, ommaviy xokimiyatlar ustidan oliy xakam (Fransiya), yagona xukmdor (Ummon sultonligi, Saudiya Arabistoni) sifatida xam tasvirlanishi mumkin.

Yukorida ta'kidlab utilganidek, davlat boshligi mamlakatning boshkaruv shakliga kura monarx (kirol, sulton va boshkalar) yoki prezident deb atalishi mumkin.

Monarx va uning ushbu lavozimni egallash tartibi. Krida tarikasida monarx xam davlat, xam ijro etuvchi xokimiyat boshligi tarikasida siyosiy faoliyat olib boradi. Ushbu xolat boshkaruvning absolyut va dualistik monarxiya shakllarida xam yuridik, xam faktik ifodasini topgan. Parlamentar monarxiya boshkaruv shaklidagi davlatlarda esa monarx rasmiy jixatdan ijro etuvchi xokimiyat boshligi sifatida tan olinsada, aslida xokimiyat xukumat boshligi - bosh vazir (premyer ministr) kulida buladi.

Prezidentura. Jaxonda prezidenturaning ikki xil shakli mavjud: yakkabosh (prezident) va kollegial (utmishda Yamanda, Sudanda, Jazoirida amal kilgan prezidentlik kengashi yoki xozirdagi Kuba davlat kengashi). Eronda prezidentura asosiy vakolatlari Davlat Raxbari va prezident urtasida bulingan bulib, bu uziga xos kushxokimiyat xisoblanadi. Xitoyda davlat boshligi (davlat raisi) instituti

mavjud bulsada, lekin uning asosiy vakolatlari parlamentning Doimiy kumitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Prezident davlat xokimiyati tizimida turli makomni egallashi mumkin: fakat davlat boshligi (Germaniya); - bir vaktida xam davlat xam ijro etuvchi xokimiyat boshligi (Braziliya, AKD1); davlat boshligi va bosh vazir (premyer ministr) instituti mavjud bulsada, xukumatning amaldagi raxbari (Misr, Fransiya). Prezident muayyan muddatga saylanadi (Latviyada - 3 yilga, AKD1 da - 4 yilga, Braziliyada - 5 yilga, Misrda - 6 yilga, Fransiya - 7 yilga va xokazo). Birok «umrbod prezidentlik xam bulishi mumkin (KXDR, Yugoslaviya, tunis, Uganda, Ekvatorial Gvineya va boshkalar). Shuningdek, aytish joizki, prezidentlik saylovlarsiz xam egallanish xollari mavjud, masalan xokimiyatni egallagan xarbiy xunta raxbarlari uzlarini prezident deb e'lon qilganliklari tarixdan ma'lum.

Prezidentlik lavozimiga saylanishda odatda, bir kancha talablar kuyiladi: fukarolik (1980 yilda Polsha prezidentigiga uz nomzodini kuygan shaxe Polsha fukaroligidan tashkari Kanada va Peru fukaroligiga xam ega bulgan), tulik fukaroviy va siyosiy xukuklarga egalik, muayyan yoshga yetganlik (kupchilik davlatlarda bu yosh chegarasi 35 yosh bulib, Nikaraguada - 25, Venesuyellada - 30, Xitoyda - 45, Italiyada - 50 yosh). Ba'zan yoshning yukori chegarasi xam belgilangan bulishi mumkin, masalan, Namibiyada prezidentlikka nomzod 65 yoshdan oshmagan bulishi lozim. Kupchilik davlatlar konstitusiyalari prezidentlikka nomzodlarga ayni shu davlatda bir kancha mukim yashaganlik talabini xam kuyadi (masalan Bolgariyada - 5, Ukrainada -10, AQSh da - 14, Gruziyada - 15 yil va xokazo). Kator mamlakatlarda prezidentlikka nomzod shu mamlakatda tugilgan fukaro bulishligi (AKShdagi «tuproq prinsipi»), yoki xech bulmaganda uning fukarolarining farzandi bulishligi talab kilinadi. Aksariyat xollarda, fukarolikni kabul qilgan shaxslar nomzod sifatida e'tirof etilmaydilar. Ba'zan nomzodlarga ma'lumotlilik (ta'lim soxasida) nuktai nazaridan xam talablar kuyiladi, masalan, Nigeriyada nomzod kamida urta ma'lumotli, Turkiya va Ozarbayjonda - Oliy ma'lumotli bulishi, Fillipinda esa xech bulmaganda ukish va yozishni bilishi lozim.

Prezidentlikka nomzodlar siyosiy partiyalar yoki bir guruh saylovchilar tomonidan kursatiladi. Fransiyada 500 nafar (oddiy fuqarolar emas) parlament, xududiy kengashlar, uzini uzi boshkaruv organlari kengashlari a'zolari va shaxdr merlarini uz ichiga olgan guruh tomonidan, Ukrainada tashabbuskor guruh tomonidan, lekin u guruh nomzodni kullab kuvvatlovchi saylovchilarning 100 mingta imzosini tuplashlari lozim. Nomzodlar shuningdek, siyosiy partiyalardan va bloklardan xam kursatilishi mumkin.

Jaxonda prezident saylovining turli usullarda kechishini kurish mumkin:

1. Prezidentam parlamentda saylash (Chexiya, Slovakiya, Turkiya, Vengriya, Albaniya va boshkalar). Saylovning bir boskichda utishi uchun kupincha mutlak yoki malakali kupchilik ovoz talab kilinadi. Nomzodlar kup sonli bulganligi sababli, yukorida aytib ugilgan natija juda xam kam ruy beradi. Shuning uchun saylovlar bir necha boskichlarda utadi. Keyingi boskichlarda nomzodlarga ovoz tuplashga nisbatan talab pasaytiriladi, buning natijasida partiyalarning kup sonliligi tufayli kelishmovchiliklar saylovlarni kuplab boskichlarda utkazilishiga sabab buladi. Masalan, 1982 yil Turkiyada prezidentlikka saylov boskichlari 100 tadan ortib ketgan (xozirda Turkiyada yangi Konstitusiya asosida ushbu tadbir bir kancha soddalashtirilgan), Italiyada 1992 yilda esa, prezidentlikka saylovlar 16 boskichda utkazilgan. Parlament tomonidan saylangan prezident odatda (garchi doim xam emas) «kuchsiz» buladi, chunki u uz vakolatlarini bevosita xalkdan emas, balki vakillik organidan oladi. Bu xolat u_Ni parlament oldida kuchsiz kilib kuyadi.
2. 2. Saylovchilarga ovoz berish. Saylovchilar uz ovozlarini prezidentni saylovchi vakillarga beradilar, uz navbatida vakillar bir joyga yigilib, partiyalardan kursatilgan nomzodlardan birini prezidentlikka saylaydilar (AKSh, Argentina, 1990 yilardan Finlyandiya). Bu usuldagi saylovlarda saylov natijalari (bulajak prezidentning kimligi) saylovchi

vakillar

OVOZ

bergunlariga kadar anik bulib krladi. Ya'ni vakillarning partiyaviy daxldorliklari

aniklangach, prezident kim bulishligi yakkr bilinadi.

3. 3. Prezidentni muayyan saylov kollegiyasida saylash. Germaniyadagi parlamentning kuyi palatasidan va yerliklar vakillik organlaridan teng mikdordagi a'zolardan tashkil topgan Federal Kengashda, Italiyadagi parlamentning ikkala palatasi va viloyat Kengashlari delegatlaridan tashkil topgan kollegiyada xamda Xindistondagi parlamentning ikkala palatasidan va shtatlarning krnunchilik majlislaridan saylangan a'zolardan tashil topgan kollegiyada prezidentni saylash.

4. 4. Prezidentni bevosita xalk tomonidan saylanishi (Meksika, Ukraina, Fransiya, Rossiya va boshkalar).

Kupchilik mamlakatlarda prezidentni keyingi muddaga kayta saylashda xech kanday cheklashlar yuk (Misr, Fransiya, Suriya va boshkalar). Germaniyada bir shaxe ikki muddatdan ortik. prezident bula olmaydi, Argentinada xam bir shaxe surunkasiga ikki muddatga prezident etib saylanishi mumkin. bunda prezident birinchi marta - olti yilga, ikkinchi muddatga - turt yilga saylanadi. Meksikada esa bir shaxe fakat bir marta (6 yilga) prezident etib saylanishini mumkin. Meksika Konstitusiyasi bir shaxeni ikki muddatga saylanishini takiklaydi, shuningdek Meksikada vaktinchalik prezidentlik lavozimiga xam yul kuyilmaydi. Prezidentni fakat bir muddatga saylanish amaliyoti Boliviyada, Ekvadorda, 1995 yildan Nikaraguada xam amal kiladi. Yukorida aytib utilgan cheklovlar prezidentlik avtoritarizmiga yul kuymaslik uchun joriy kilingan, chunki lotin Amerikasi va Afrikaning ba'zi davlatlarida yettinchi, xdtto sakkizinchi muddatga saylangan

prezidentlar uz kullarida davlat xokimiyatining barcha tizimlarini birlashtirib olganlar.

Aksariyat mamlakatlarda prezidentlik lavozimi fakat erkaklar tomonidan egallanadi, lekin keyingi un yiliklarda prezidentlik lavozimini ayollar tomonidan xam egallanganligi kuzatilmokda (Argentinada, Fillipinda, Irlandiyada, Islandiyada, Shri-Lanka va boshka davlatlarda).

Ayrim mamlakatlarda saylovlar urniga davlat raxbarining vakolat muddatini uzaytirish tugrisida referendumlar xam utkazilishi mumkin. Osiyoning ba'zi postsosialistik mamlakatlarida (Turkmaniston), jumladan Uzbekistonda xam saylovlar urniga prezidentning vakolat muddatini uzaytirish tugrisida shunday referendumlar utkazilgan.

Tarixda sosialistik oriyentasiyadagi davlatlarda prezident xokimiyat tepasidagi partiya syezdi tomonidan saylangan (Kongo). Ayrim mamlakatlarda prezidentlar umrbod uz lavozimlarini egallashlari e'lon kilingan (KXDR, Tunis, Uganda, Ekvatorial Gvineya va boshkalar). Iosif Broz Tito Yugoslaviyaning umrbod prezidenta deb e'lon kilinib, xatto Konstitusiyada Prezident saylanadi, lekin bu koida Iosif Broz Titoga tadbik etilmaydi deb e'tirof etilgan.

Prezidentlik hokimiyati. AQSh Konstitusiyasining 2-modda 1- bo'limiga muvofiq ijro hokimiyati Prezidentga tegishlidir. Hokimiyatning bo'linishi prinsipiga muvofiq, Prezidentning ijro hokimiyati, ya'ni mamlakat federal apparatining boshlig'i sifatida e'tirof etilishi, keyinchalik Prezidentning davlat boshlig'i va oliy mansabdor shahs sifatida tanilishiga sabab bo'lgan. Ijro hokimiyati to'la ma'noda shaxsan Prezidentga topshirilgan. Konstitusiyada ijro hokimiyatining hyech qanday kollegial organi yoki ijro hokimiyatining strukturasi haqida so'z bormaydi. Prezident mustaqildir. U Kongressga hisobot bermaydi va uning nazorati ostida emas. Prezident faqat xalq oldida javobgar bo'ladi. Uning vakolatlari juda keng ravishda qonuniy mustahkamlangan. Prezident hokimiyati shaxsiy diktatura sifatida ham o'rnatilishi qiyin, chunki uning hokimiyati Kongress hamda Oliy sud tomonidan tiyib turiladi. Prezidentning vakolatlari konstitusiyaviy asosda Kongress tomonidan to'g'ridan-to'g'ri cheklab

qo'yilmagan. Siyosiy partiyalarning o'zaro kurashi natijasida Prezident maqomiga tegishli Konstitutsiyaviy tuzatishlar (XII, XX, XXII, XXIII, XXV) faqat Prezident va Vise- prezidentni saylash hamda ba'zi holatlarda ular lavozimini egallab turish tartibini belgilab bergan xolos. Prezidentning o'z hokimiyatini amalda tatbiq etish masalasi ko'pincha Prezidentni Kongress a'zolari bilan bitta siyosiy partiyaga tegishli yoki tegishli emasligiga bog'liq. Prezident bilan Kongress a'zolarining ko'pchilik qismi bir partiyadan emasligi jiddiy kurashlarga olib keladi (hatto impeachment xavfini tug'diradi).

Prezidentni saylash tartibi. Prezident nomzodligiga qo'yilgan konstitutsiyaviy talablar unchalik ko'p emas. AQShda tug'ilgan, yoshi 35 ga yetgan va o'n to'rt yil davomida Amerika Qo'shma shtatlarida yashab kelgan har bir fuqaro (naturalizasiya usuli orqali fuqarolikni olgan shaxslardan tashqari) Prezident lavozimiga o'z nomzodini ilgari surishi mumkin. Konstitutsiyada yana shu narsa mustahkamlab qo'yilganki, Prezident va vise-prezidentlikka nomzodlar bitta shtatdan ko'rsatilmasligi kerak. Albatta, nomzodga bo'lgan real talablar ko'p, lekin ular yashirin tabiatga ega bo'lgan talablardir. Bu lavozimga davlatning yuqori mansablarida ishlab tajriba oltirgan mashhur davlat arboblari odatda shtatlarning gubernatorlari, senatorlari, generallar harakat qilib, ular o'zlarining siyosiy partiyalari apparati bilan bog'liq, radikal kayfiyatda yoki, mayda millatlar vakili bo'lmagan shaxslardir. Prezidentlikka nomzod qidirish va qo'yish asosan ikki bosh siyosiy partiyaning qo'lidadir.

Prezident to'rt yil muddatga saylanib, muddatidan ilgari saylovlar o'tkazish Konstitutsiyada belgilanmagan.(bunday hol AQSh tarixida hych qachon bo'lmagan) Saylovlar doim bir zaylda har kabisa yilining noyabr oyi birinchi dushanbasidan keyingi birinchi seshanbasida o'tkaziladi. Konstitusiyaning dastlabki matnida Prezidentni qayta saylash man qilinmagan, lekin tez orada (prezident J.Vashingtondan boshlab) shunday o'rnatilganki, unga ko'ra prezident o'z lavozimini ketma-ket ikki muddatdan ortiq egallashi mumkin emas edi. Lekin bu odat 1932 yildan boshlab to'rt marta saylangan prezident F.Ruzvelt tomonidan buzildi va shunda (1951 yilda) Konstitutsiyaga bir shaxsni prezident lavozimiga

ikki muddatdan ortiq saylashni man etuvchi, xozirga qadar amalda bo'lgan tuzatish kiritildi.

Prezident bilvosita (egri) saylanadi. Saylovchilar saylovga vakil qilingan kishilarga ovoz beradilar hamda saylangan vakillar kollegiyasi esa o'z navbatida prezidentni saylaydi. Bir shtatdan saylanadigan Kongress vakillar palatasining hamda Senatining a'zolari soni nechta bo'lsa, ushbu shtatdan Prezidentni saylaydigan vakillar miqdori ham shuncha bo'lishi kerak. Bunga qo'shimcha ravishda poytaxtdan (Kolumbiya federal okrugi) saylovga vakil qilingan uchta shaxs saylanadi. Shunday qilib saylovga vakil qilinganlar kollegiyasi $100+435+3=538$ saylovchidan iborat.

Prezident vakolatining to'xtalishi. Konstitutsiya (XXVtuzatishda)da prezident vakolatini muddatidan ilgari to'xtatilishining to'rtta asosi mavjud: lavozimidan chetlashtirilganida; vafot etganida; iste'foga chiqqanida; o'z lavozimi bo'yicha majburiyat va vakolatlarini amalga oshirishda layoqatsizlik qilganida.

Prezident vakolatlari Asosiy vakolatlar konstitutsiyada sanab o'tilgan (2-bo'lim, II modda). Shuningdek, Prezident amalda nisbatan kengroq vakolatlarga (yoki «yashirin») ega bo'lib, Kongress tomonidan turli vakolatlangan huquqlar bilan doimiy ravishda «saylab» kelinmoqda. Prezidentning Konstitutsiyaviy vakolatlari qo'yidagi asosiy guruhlar bo'yicha tizimlashtirilishi mumkin.

Vakillik funksiyalari Prezident davlat boshlig'i sifatida AQShning ichki va tashqi munosabatlarida Oliy vakillikni amalga oshiradi. Unga impeachment bilan bog'liq ishlardan tashqari Qo'shma shtatlarga qarshi qaratilgan jinoyatlar uchun hukm ijrosining va avf etish muddatini cho'zish huquqi berilgan. Uning o'zi amnistiya e'lon qiladi. «Millat namoyondasi» (rahnamosi) sifatida Prezident turli marosimlarga boshchilik qiladi. Tantana va bayramlarda ishtirok etadi. U Kongressning ham vakolatiga kiruvchi xarbiy va boshqa unvonlar bilan taqdirlashi va topshirish huquqlaridan foydalanadi. Amaldagi Prezidentlarni davlat mukofotlari bilan taqdirlash qoidasi AQShda qabul qilinmagan.

Qonunchilik jarayonida ishtirok etish. Qonunchilik tashabbusi huquqidan rasman foydalanmay, qonunlar qabul qilishda palatalar majlis ishtirok etmasa ham,

prezident qonun chiqarish jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi. Kuzatuvchilarning aytishicha bu ta'sir hatto hal qiluvchi xarakterga ega, chunki prezident apparati tomonidan ishlab chiqilgan qonun loyihalarining aksariyat ko'pchiligi Kongress tomonidan qabul qilinadi. Bundan tashqari Kongress prezidentga ayrim vaqtda qonunchilik vakolatlarini berishi mumkin. Bu holat Prezidentga keng ko'lamdagi qarorlar chiqarish huquqini beradi. Prezident Veto huquqiga ham ega, ya'ni 10 kun ichida Kongress tomonidan qabul qilingan billarni imzolamasdan, ularni o'z o'zgartirishlari bilan birga qayta ko'rib chiqish uchun qaytarib yuborish huquqiga ega. Veto Kongress tomonidan ikkala palataning $\frac{2}{3}$ qismining ovozi bilan billni ma'qullash orqaligina bekor qilinishi mumkin. Prezidentlar veto huquqini qullash xavfi bilan Kongressga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Har yili mamlakat prezidenti Kongressga mamlakatning ichki va xalqaro ahvoli haqida ma'lumot jo'natadi Bu jo'natma bilan uning shaxsan o'zi (odatda yilning yanvar oyida) ikki palataning qo'shma majlisida chiqish qiladi. Kongressga jo'natmada muayyan qonunlar qabul qilish tavsiya etiladi (prezidentning o'ziga hos bo'lgan bu qonunchilik dasturi imtiyozli tartibda ko'rib chiqiladi). Shuningdek, prezident har yili belgilangan tartibda Kongressga iqtisodiy ma'ruza va federal byudjet loyixasi hamda muayyan savollar bo'yicha maxsus jo'natmalar yuboradi.

Prezident Kongressni chaqirish yoki tarqatib yuborish huquqiga ega emas, lekin favqulodda holatlarda (palatalarning ikkalasini yoki birini) uni chaqirish va palatalarning majlis o'tkazish muddati yuzasidan kelishmovchiliklar yuzaga kelsa, u o'ziga maqbul muddatni belgilashi mumkin. Prezident Kongress chaqirig'iga binoan kelishga majbur emas va bunday hollar tarixda bo'lmagan. U prezidentning ichki masalalarga oid faoliyati yuzasidan Kongress talab qilgan ma'lumotlarni berishni rad etish huquqiga ega. Kongress bilan bog'liq o'zaro kundalik ishlar Prezidentning Kongress bilan aloqasini o'rnatib beradigan maxsus xizmat orqali amalga oshiriladi.

Harbiy sohaga oid vakolatlar M.V. Baglayni fikricha Prezident Konstitutsiya bo'yicha armiya, flot hamda shtatlarda haqiqiy xizmatga chaqirilgan milisiyaning Oliy bosh qo'mandonidir. U urush e'lon qilish huquqiga ega emas, lekin "Amerika manfaatlarini" himoya qilish, tinchlikni saqlash

maqsadlarida qurolli kuchlarni mamlakat chegarasidan tashqariga yuborishi mumkin. 1973 yilgi qonunga ko'ra bunday xarbiy harakatlarni 60 kun davomida amalga oshirish mumkin, shundan keyin Kongressga tegishli ma'lumot yuborishi shart. Kongress o'z rezolyusiyasi bilan prezidentdan qurolli kuchlarni u kiritgan davlatdan olib chiqishni talab qilish huquqiga ega. Prezidentlar o'zining ushbu huquqidan foydalanib qurolli kuchlar chegara ortiga tez-tez yuborib turadi. Prezident davlat boshlig'i sifatida harbiylarni davlatning oliy harbiy unvonlari bilan taqdirlaydi., harbiy qism shtabi boshliqlarining birlashgan guruhini tuzadi (bosh shtab) hamda mudofaa vaziri va harbiy boshliqlarni tayinlaydi. *Tashqi siyosat sohasidagi vakolatlar.* Prezident tashqi siyosiy faoliyatni tashkil etadi va amalga oshiradi, shaxsan o'zi yoki o'z vakillari orqali halqaro muzokaralar olib boradi. Senatning maslahati va roziligi bilan halqaro shartnomalar u tomonidan imzolanadi; Prezident Senatning tasdig'idan keyin (senatorlarning ovozining $\frac{2}{3}$ qismi) ularni ratifikasiya qiladi. Shu bilan birga davlat boshlig'i boshqa davlatlar bilan Senatning tasdig'ini talab qilmaydigan ijrochilik bitimlarini tuzadi. Bunday juda ko'p miqdorda ijrochilik bitimlari Prezident tomonidan imzolanadi.

Davlatning tashqi siyosiy faoliyatiga rahbarlik qilish aynan Prezidentga tegishli. U Senatning tasdig'i bilan elchi, konsul va halqaro tashkilotlarning vakillarini tayinlaydi. Ko'pgina halqaro strategik ahamiyatga ega bo'lgan turli tashqi siyosiy doktrinalar Prezident tomonidan ilgari suriladi. Faqat ayrim hollardagina Kongress palatalar rezolyusiyalari bilan alohida masalalar bo'yicha tashqi siyosatda va halqaro maydonda AQSh bilan bog'liq munosabatlarni ifoda etadi. Prezident vakolatiga, shuningdek, akkreditasiya va xorijiy mamlakatlarning elchilarini qabul qilish ham kiradi.

Yuqori lavozimga shaxslarni tayinlash. Bu Prezidentning davlat boshqaruvi sohasidagi eng asosiy vakolatlaridan biri. Prezident mansabdor shaxslarni yuqori lavozimlarga ijro hokimiyati boshlig'i sifatida Senatning maslahati va roziligi bilan tayinlaydi (ular taxminan 300 ta). Ularga vazirlar, Oliy sud va boshqa federal sudlarning sudyalari, boshqarma boshliqlari, elchilar va boshqa mansabdor shaxslar kiradi. Amaliyotda Senatning Prezident tomonidan taklif etilgan

nomzodlarning rad etilish hollari uchray turadi, ular orasida vazirlikka nomzodlar ko'proq. Yuqoridagi barcha mansabdor shaxslarning o'z lavozimidan chetlatilishi ham Prezidentning o'z ixtiyori bilan amalga oshiriladi. Qo'yiroq lavozimdagi mansabdor shaxslarni tayinlash va joylashtirish qonunlar va boshqaruv yo'riqnomalari bilan tartibga solinadi. *Favqulodda holatlardagi vakolatlari.* Prezident alohida shtatlar miqyosida bo'lgani kabi milliy miqyosda ham favqulodda holat e'lon qilishi mumkin. Prezidentning favqulodda holat to'g'risidagi qarori zudlik bilan Kongressga yuboriladi va rasmiy nashr hisoblangan «Federal redjister»larda e'lon qilinadi. Milliy miqyosdagi favqulodda holatlar tegishli Kongress rezolyusiyasi, Prezident akti asosida yoki ko'rsatilgan muddatning tugashi bilan to'xtatilishi mumkin.

Prezident aktlari. O'z vakolatlarini amalga oshirishda Prezident turli huquqiy aktlar chiqaradi. Prezident tomonidan chiqariladigan asosiy aktlarga quyidagilar kiradi:

- Ijrochilik buyruqlari, qonunlarga asoslangan holda davlat boshqaruvining aksariyat muhim masalalarini tartibga soladi.
- Istiqbolli rejalar, ular yordamida ijro hokimiyati organlari tizimiga rejasiga o'zgartirishlar kiritiladi. (Kongress tasdig'iga kiritish sharti bilan)
- Shuningdek, Prezident tomonidan turli ko'rsatmalar, yo'riqnomalar, chaqiriqlar, qoida va nizomlar chiqariladi. Ular mamlakatning barcha hududida amal qiladi va muntazam ravishda sud nazorati ostida hisoblanadi.

Vise-prezident. Bu Prezident bilan birga saylanadigan mamlakatdagi ikkinchi darajali shaxsdir. Uning konstitusiyaviy majburiyati shundan iboratki, u Senatga raislik qiladi va prezidentlik lavozimi muddatidan oldin bushab qolganida uning o'rnini egallaydi. Agar Vise-prezidentning lavozimi vakant bo'lib qolsa, Prezident Kongressning ikkala palatasi ko'pchilik ovozi olib tasdiqlangan Vise-prezidentni tayinlaydi. Bunday holat 1974 yilda Prezident R.Niksonning lavozimini egallagan Vise-prezident D.Ford tomonidan, Kongressning tasdig'iga binoan N.Rokfelleri Vise-prezident etib tayinlaganda ro'y bergan.

Prezidentdan odatda turli xil komissiyalarga raislik qilish bilan bog'liq topshiriqlarni olgan Vise- prezident bevosita Prezidentning raxbarligi ostida ishlaydi.

XULOSA

Hozirgi zamon mamlakatlarida Prezidentni davlat boshlig'i sifatida o'rganish va uni huquqiy maqomi masalasini qarab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mavzuni tadqiq etish natijasida biz tomonimizdan quyidagi taklif va xulosalar ishlab chiqildi:

- 1) Davlat rahbari – davlatning shunday huquqiy va siyosiy arbobi, uning barcha fazilatlari o'ziga xos va o'ziga mos, biz faqat uning umumiy vakolatlarini taxlil qilamiz, bunda respublika va monarxiya shakllarini alohida ham ajratib o'tirmaymiz. Davlat rahbarlarini umumiy vakolatlarini yoritishda ular haqiqatdan ham monarx uchun va prezident uchun universal yoki xarakterlimi yohud ularning ba'zilarida bu hususiyatlar mavjud emasmi degan savollarga to'xtalamiz.

Adabiyot, manbalarda davlat rahbarining vakolatlariga oid turli ma'lumotlar keltiriladi, ularni umumlashtirganda eng asosiy va o'ziga xos vakolatlarini ajratib ko'rish mumkin.

Fikrimizcha ular orasida eng universali davlat rahbarlarining vakillik funksiyalaridir. Davlat rahbari mavjud urf-odatlar, qoidalar va qonun normalari muvofiq o'z mamlakatini ichki va tashqi munosabatlarda etadi, bunday munosabatlar ildizi aslida qadimiy davrlarga borib taqaladi.

- 2) Jahon amaliyotini o'rganish jarayonida davlat rahbari lavozimini oltita asosiy variantlari mavjud ekanligini ko'rish mumkin.

Birinchi variant u juda qadimiy va an'anaviy bo'lgan monarx davlat rahbari hisoblanadi. Monarxning lavozim egallashida uch xil usul mavjud:

- 1) taxtning meros bo'lib qolishi (monarxiya keng tarqalgan davlatlar Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Belgiya, Yaponiya, Tailand va boshqalar);
- 2) monarxning o'z oilasi (sulola oqsoqollari) tomonidan tayinlanishi yoki saylanishi, Saudiya Arabistoni, Afrikada Svazilend

qirolligi, Kator davlati va boshqa yaqin Sharqdagi monarxiya tuzumidagi davlatlarda mavjud;

3) monarx boshqa monarxlar, (federasiya subyektlarining davlat boshliqlari tomonidan saylanadi). Bu vaqti-vaqti bilan saylanib to'radigan monarxiya. Malayziya bunga misol bo'la oladi. Bu yerda sultonliklar rahbari besh yil muddatga saylanadi. Birlashgan Arab Amirliklarida ham huddi shunday tizim mavjud.

Ikkinchi variant-prezident - davlat rahbari. Bunda ham lavozim egallashning uch xil usuli mavjud:

- 1) xalq, fuqarolar tomonidan bevosita saylanishi;
- 2) parlament tomonidan saylanishi;
- 3) tegishli saylovchilar jamoasi tomonidan saylanish. Saylovchilar parlament a'zolari va mahalliy hokimiyat organlarining vakillari bo'lishi mumkin.

Uchinchi variant nostandart ko'rinishi. Gap parlament tomonidan ma'lum muddatga tegishli organ tomonidan saylanadigan davlat rahbari to'g'risida bormoqda. Sobiq ittifoq davrida shunday variant qo'llanilgan edi. Hozir esa Kubada shu tizimga rioya etiladi.

To'rtinchi variant o'rindoshlik asosida davlat rahbari. Germaniya Federativ Respublikasida bosh vazir hukumat boshlig'i vazifasini bajaradi. U yerda har bir federasiya subyekti-yer o'z parlament va hukumatiga ega, ammo bu davlat tuzilmasining rahbari funksiyasini hukumatning rahbari bajaradi.

Beshinchi variant general gubernator - davlat rahbari. General-gubernator Kanada, Astraliya, Yangi Zelandiya, Barbados, Yamayka va boshqa davlatlarda mavjud. General-gubernator –bu sof ma'nodagi davlat rahbari emas, balki u Buyuk Britaniya monarxining vakili hisoblanadi.

Oltinchi variant o'ta nostandart ko'rinishda namoyon bo'lib, normal davlat mexanizmi doirasidan chiqib ketish holatida yuz beradi. Bu kuch

ishlatib hokimyatni noqonuniy egallagan va davlatni yakka o'zi yoki jamoat bo'lib boshqarayotgan rahbarlik hisoblanadi. Ko'pincha harbiylar mamlakatda hokimiyat to'ntarishini amalga oshiradilar. Bunga o'zini davlat rahbari, oliy harbiy boshliq deb e'lon qilgan harbiy hunta misol bo'la oladi.

Davlat rahbari – davlatning shunday huquqiy va siyosiy arbobi, uning barcha fazilatlari o'ziga xos va o'ziga mos, biz faqat uning umumiy vakolatlarini taxlil qilamiz, bunda respublika va monarxiya shakllarini alohida ham ajratib o'tirmaymiz. Davlat rahbarlarini umumiy vakolatlarini yoritishda ular haqiqatdan ham monarx uchun va prezident uchun universal yoki xarakterlimi yohud ularning ba'zilarida bu xususiyatlar mavjud emasmi degan savollarga to'xtalamiz.

Adabiyot, manbalarda davlat rahbarining vakolatlariga oid turli ma'lumotlar keltiriladi, ularni umumlashtirganda eng asosiy va o'ziga xos vakolatlarini ajratib ko'rish mumkin.

- 3) Ba'zi bir mamlakatlarda prezident jazoni yengillashtirish, almashtirish va hattoki hukmini o'zgartirish huquqiga ega.

Shaxslarning huquqiy maqom sohasidagi vakolat ham davlat rahbari vakolati jumlasiga kiradi. Gap alohida fuqarolarga qaratilgan vakolat to'g'risida bormoqda. Bu orden va medallar bilan mukofotlash, turli unvonlar, fuqarolik maqomini berish kabilarni o'z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

RAHBARIY ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. 1-tom «O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura». Toshkent., «O'zbekiston», 1996 yil.
2. Karimov I.A. 2-tom. «Bizdan ozod va obod vatan qolsin». Toshkent., «O'zbekiston», 1996 yil.
3. Karimov I.A. 3-tom. «Vatan barchamiz uchun muqaddasdir». Toshkent., «O'zbekiston», 1996 yil.
5. Karimov I.A. 4-tom. «Bunyodkorlik yo'lidan». Toshkent., «O'zbekiston», 1996 yil.
6. Karimov I.A. 5-tom. «Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi». Toshkent., «O'zbekiston». 1997 y.
7. Karimov I.A. 6-tom. «Xavfsizlik va barkaror taraqqiyot yo'lida». Toshkent., «O'zbekiston», 1998 yil.
8. Karimov I.A. 7-tom. «Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan ko'ramiz». Toshkent., «O'zbekiston», 1999 yil.
9. Karimov I.A. 8-tom. «Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz». Toshkent., «O'zbekiston», 2000 yil.
10. Karimov I.A. «Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari». «O'zbekiston», 1996 yil.
11. Karimov I.A. «O'zbekiston-buyuk kelajak sari». Toshkent., «O'zbekiston». 1999 yil.
12. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda». Toshkent., «O'zbekiston», 1999 yil.
13. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2-chaqiriq 6-sessiyasidagi «Adolat qonun ustuvorligida» mavzusidagi ma'ruzasi.
14. Karimov I.A. Islohotlar yo'lidan izchil borish asosiy vazifamiz. «Xalq so'zi», 2004 yil 10 fevral.

15. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. «Xalq so'zi», 2005 yil 29 yanvar.
13. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezonini bo'lishi zarur. -T.: J //Fuqarolik jamiyati. 2006. № 2.
14. Karimov I.A. Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini qat'iyat bilan davom ettirishdir.//Xalq so'zi, 2007 yil 8 dekabr.
15. Karimov I.A. Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi. //Xalq so'zi, 2008 yil 26 mart, № 60 (4470).
16. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T.:2008.

Darslik va o'quv qo'llanmalari:

18. Aranovskiy K.V. Gosudarstvennoye pravo zarubejnyx stran. Uchebnik dlya VUZov.M.2000. s. 421
- 19.Alebastrova I.A. Konstitusionnoye (Gosudarstvennoye) pravo zarubejnyx stran. Uch.pos. M. Yurisprudensiya, 2000. s. 304
- 20.Konstitusionnoye pravo zarubejnyx stran. Uchebnik dlya VUZov. Pod общ.red. M.V.Baglaya i dr.
- 21.Chirkin V.Ye. Konstitusionnoye (Gosudarstvennoye) pravo zarubejnyx stran. M.Yurist' 2001 s.622
- 22.Xorijiy mamlakatlar konstitusiyaviy (davlat) huquqi. O'quv qo'llanma. T.2006. 514b
- 23.Z.Muqimov., Sh.Boymurodov. Chet mamlakatlar konstitusiyaviy huquqi. Ma'ruzalar matni. Samarqand. 2005y
- 24.Saidov A.X. Tojixonov U. Obщaya xarakteristika Konstitusii mira. V sb., Sbornik konstitusiy mira. Tom 1., str 3-40. T. Akademiya. 1997.

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

- 25.Konstitusii mira. Pod. Obщ. red.Saidov A.X. Tojixonov U. V 8- tomax T. Akademiya. 1997- 2005
- 26.Konstitusii gosudarstv Yevropeyskogo Soyuz. M. Norma-Infra. 1999.s. 576
- 27.Konstitusii zarubejnyx gosudarstv. M. BEK. 2000 s. 487.